

INGLIZ VA O`ZBEK ADABIYOTIDA URUSH VOQEALARI INSON TAQDIRIGA TA`SIRI

Ushbu monografiya jahon urushlarining jahon adabiyoti rivojiga ko`rsatgan ta`sirini ikki millat asarlari asosida o`rganishga o`z e`tiborini qaratgan. Bunda ingliz va o`zbek yozuvchilarining urush voqealariga bo`lgan munosabati va ularning asarlarida buning qanday akslanishini ko`rishimiz mumkin. Shuningdek, monografiyada Ernest Hemingueyning "Alvido, qurol" va O`tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlari orqali urush voqealarining inson taqdiriga ta`siri tadqiqi olib borilgan.

Monografiya Angliya adabiyoti, chet el adabiyoti, stilistika, adabiyotshunoslik nazariyasi kabi fanlarning tegishli o`rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, monografiyada zikr etilgan natijalar bo`yicha ma`ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug`atlar yaratishda foydalanish mumkin.




Khaydarova Nodirabegim Akhtamjon qizi was born on September 15, 1991 in a educated class family. In 2014 she graduated from Bukhara State University, Faculty of Foreign Philology, and since 2020 she has been working at Bukhara State University.



Globe
EDIT

Globe
EDIT



Nodirabegim Haydarova

INGLIZ VA O`ZBEK ADABIYOTIDA URUSH VOQEALARI INSON TAQDIRIGA TA`SIRI

MONOGRAFIYA

Nodirabegim Haydarova

**INGLIZ VA O`ZBEK ADABIYOTIDA URUSH VOQEALARI INSON
TAQDIRIGA TA`SIRI**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

Nodirabegim Haydarova

**INGLIZ VA O`ZBEK ADABIYOTIDA
URUSH VOQEALARI INSON
TAQDIRIGA TA`SIRI**

MONOGRAFIYA

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

17 Meldrum Street, Beau Bassin 71504, Mauritius

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-62186-3

Copyright © Nodirabegim Haydarova

Copyright © 2021 International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

FOR AUTHOR USE ONLY

**INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA
URUSH VOQEALARI INSON TAQDIRIGA
TA'SIRI
(ERNEST HEMINGUEYNING
“ALVIDO, QUROL!” VA O'TKIR
HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI”
ASARLARI ASOSIDA)**

HAYDAROVA NODIRABEGIM

Ushbu monografiya jahon urushlarining jahon adabiyoti rivojiga ko'rsatgan ta'sirini ikki millat asarlari asosida o'rganishga o'z e'tiborini qaratgan. Bunda ingliz va o'zbek yozuvchilarining urush voqealariga bo'lgan munosabati va ularning asarlarida buning qanday akslanishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, monografiyada Ernest Hemingueyning "Alvido, qurol" va O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlari orqali urush voqealarining inson taqdiriga ta'siri tadqiqi olib borilgan.

Monografiya Angliya adabiyoti, chet el adabiyoti, stilistika, adabiyotshunoslik nazariyasi kabi fanlarning tegishli o'rinlarini yoritishga yordam beradi. Shuningdek, monografiyada zikr etilgan natijalar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.

FOR AUTHOR USE ONLY

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida hayotning barcha sohalari-fan, madaniyat, ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro aloqalarning rivojlanishi va kengayishi mutaxassislarning xorijiy tilni bilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Xorijiy til esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va umum-madaniyat taraqqiyotining amaliy oshishi, til tayyorgarligi uzluksiz ta'limning , uni xalqchillashtirishning muhim qismi bo'lib qoladi.

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta. Bugungi kunda xorijiy tillarga bo'lgan ulkan ehtiyoj chet el adiblari va o'zbek adiblarining asarlarini qiyosiy tahlil qilishni taqozo etmoqda. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlari bizda mavjud.

Ma'lumki, mamlakatimizda G'arbiy Ovrupo (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, urdu, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilmoqda. Ayniqsa, jahonning yetakchi tillaridan biri sanalgan ingliz tiliga bo'lgan qiziqish xalqimiz orasida kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni¹, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"² va Prezidentning 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori buning yaqqol isbotidir.³

Bilamizki, qiyosiy adabiyotshunoslik turli milliy adabiyotlarni bir-biriga qiyoslab o'rganadi. Umumiy qonuniyatlarni ochadi. Adabiyotshunoslikni

¹Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни.// Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. — Т.: Шарқ, 1997.

²Ўзбекистон Республикаси "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури"// "Баркамол авлод— Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори".Т.:Шарқ, 1997.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012-yil 10-dekabrda Qarori.

boshqalardan ajratib o'rganishga yo'l bermaydi. Adabiyotning millati bo'lmaydi, milliy xususiyati bo'ladi.

Badiiy asar, garchi u real hayotdan olingan bir parcha bo'lsa-da, unda aks ettirilgan jamiyat muhim va o'sha joyning madaniyati hamda ijtimoiy ahvoli haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Amerika adabiyotining mashhur namoyandasi Ernest Heminguey va o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan O'tkir Hoshimovning asarlari chuqur g'oyaviy mazmuni bilan ajralib turadi. Ularda ko'tarilgan turli muammolar hozirgi kunga qadar dolzarb deb bilinadi va shu sababli kitobxonlar qo'lidan tushmay kelmoqda.

Ernest Xeminguey Amerika adabiyotida o'zining soda tili, oddiy uslubi va mavzular ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham uning asarlari dunyo tillarining 50ga yaqiniga tarjima qilingan. Yozuvchining asosiy tanlagan mavzusi urush davri, chunki E.Xeminguey urush davri daxshatlariga o'zi guvoh bo'lgan, real hayot tasvirlangan asar esa kitobxonning yuragiga tez yetib borishi aniq. Adibning "Alvido, qurol!" asari ko'pgina jahon tillariga tarjima qilinib, kishilar qalbidan joy olgan. Asarda insoniyat boshiga kulfat solgan I jahon urushidagi voqealar tasvirlangan.

O'tkir Hoshimov o'zbek xalqining fidoyi, rostgo'y yozuvchisi sifatida hamisha o'z mavzui bo'lib kelgan xalq hayotini uzluksiz kuzatadi va unda aytish nihoyatda zarur bo'lgan nuqtalarni qalamga oladi. Adibning "Ikki eshik orasi" romani xalqlar boshiga kulfat solgan ikkinchi jahon urushi to'g'risida yozilgan achchiq va alamli yilnomadir.

Mavzuning dolzarbligi ikki asarni qiyosiy tahlil qilish orqali, urushning ikki millat kishilarining taqdiriga ta'sirini obrazlar misolida o'rganib uni ishda yoritishdir. Monografiyaning obyekti sifatida Ernest Hemingueyning "Alvido, qurol!" va O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlari olindi. Ularda tasvirlangan obrazlar, asarda ilgari surilgan g'oyalar uning predmetini tashkil etadi.

Monografiyani yozishdan asosiy maqsad Ernest Heminguey va O'tkir Hoshimov hayoti va ijodini va ularning ikki buyuk romani "Alvido, qurol!" va "Ikki eshik orasi" asarlarini atroflicha o'rganib chiqish. Asosiysi esa, mualliflarning ikki buyuk romani "Alvido, qurol!" va "Ikki eshik orasi" dagi obrazlarni qiyosiy-adabiy tahlil qilib, jahon urushlarining qahramonlar taqdiriga ta'sirini o'rganish. Monografiyani yozishda maqsadni to'la yoritish uchun bir qator vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:

- Eng avvalo, Amerika va o'zbek adabiyoti yozuvchilarining ikkala jahon urushlariga munosabatlari, va ularning asarlarida urush davri masalalarni yoritilishini o'rganish;
- Ernest Heminguey va O'tkir Hoshimovlarning hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari, jahon va milliy adabiyoti rivojida tutgan o'rni;
- "Alvido, qurol!" va "Ikki eshik orasi" asarlarining mazmun-mohiyati, ularning syujeti va kompozitsiyasi, ulardagi g'oya va mazmun mushtarakligi, asarlarda urush mavzuining yoritilishi;
- "Alvido, qurol!" va "Ikki eshik orasi" asarlaridagi ayol qahramonlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni, urushning ularning taqdiriga ta'siri haqida misollar orqali ma'lumot berish;
- "Alvido, qurol!" va "Ikki eshik orasi" asarlaridagi obrazlarni tahlil qilib, qiyosiy adabiyot nuqtai nazaridan o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib berish;

Ishda ana shu maqsad va vazifalar asosida romanlardan keltirilgan parchalar vositasida asosiy mavzuni yoritishga harakat qildik.

Ushbu monografiyada quyidagilar xususida so'z yuritiladi:

1. Amerika va o'zbek adabiyoti adiblarining jahon urushlariga munosabati haqida bilib olish
2. Ernest Heminguey va O'tkir Hoshimovlarning hayoti va ijodi, ularning asarlarida urush mavzuining yoritilishini o'rganish
3. Ernest Hemingueyning "Alvido,qurol!" va O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlaridagi g'oya va mazmun mushtarakligi, ayol qahramonlarining jamiyatda tutgan o'rni va ularning hayotiga urush ta'sirini ko'rsatish

4. Ernest Hemingueyning “Alvido,qurol!” va O`tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlaridagi obrazlarni tahlil qilish.
5. Asarlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali ularning taqdiriga urushning ta`sirini ko`rsatib berish

Biz tadqiqotimizning mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik tahlil kabi metodidan foydalandik. Ushbu monografiya tadqiqoti davomida qo`lga kiritilgan natija va xulosalar tili o`rganilayotgan mamlakat adabiyoti, o`zbek adabiyoti tarixi, chet el adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi kabi fanlarida informatsion manba sifatida qo`llanilishi mumkin. Shu bilan birga, bu natija va xulosalardan yuqorida qayd etilgan natijalar bo`yicha ma`ruza matnlarini tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda foydalanish mumkin.

Ingliz va o`zbek adabiyotshunosligiga oid asarlarda Ernest Heminguey va O`tkir Hoshimovlarning hayoti va ijodi, ularning asarlaridagi g`oyalar, obrazlar, urush voqealarining tasviri talqini haqida yetarlicha ma`lumot bo`lishiga qaramay, bu ikki adibning urushga doir asarlari o`rtasidagi farqlar va tafovutlar, ularning qiyosiy-tipologik tahlili, va bu orqali urush voqealarining insoniyat taqdiriga ta`sirini o`rganish adabiyotshunoslikda amalga oshirilmagan edi. Bu holat biz tanlagan mavzuning yangiligidan dalolat beradi.

I BOB. II JAHON URUSHINING JAHON ADABIYOTIGA TA'SIRI

1. Amerika adabiyoti yozuvchilarining II jahon urushiga munosabati

Adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalar manbai hisoblanadi. Unda turli zamonlardagi kishilarning fikrlari, o'y-mulohazalari orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limiy, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlari o'z aksini topadi. Har bir davr adabiyotida o'sha zamon jamiyatining ong darajasi aks etadi.

Adabiyotning eng yaxshi namunalarida ifodalangan g'oyalarda voqelikdagi o'zgarishlar, turmush tajribasi, turli ijtimoiy sinf yoki guruhlaming manfaatlari, qarashlari aks etadi. Shunga ko'ra ular katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, millionlab kishilar qalbiga, ongiga yetib boradi.

Eng yaxshi adabiy asarlarda har doim muayyan davrda xalq ommasini hayajonga solgan masalalarga jiddiy e'tibor berilgan, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari yuzaga chiqadigan muhim hodisalar aks ettirib kelingan. Eng yaxshi adabiy asarlarda hayotning asosiy jarayonlari va xalq ongi aks etishi sababli ular orqali o'sha xalq adabiyotining qay darajada umuminsoniy qimmatga ega ekanligini ham aniqlash mumkin. Mana shunday asarlar sirasiga birinchi va ikkinchi jahon urushlarining insonlar taqdiriga ta'sirini, ularning ayanchli oqibatlarini ko'rsatuvchi Ernest Hemingueyning "Alvido, qurol!" va O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlarini kiritishimiz mumkin.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qancha G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Amerika Qo'shma Shtatlari yangi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni boshdan o'tkazdi. Monopolistik birlashmalar paydo bo'la boshladi. Angliya, Fransiya, Germaniya va AQSH davlatlari Afrika, Osiyo va Tinch okeani havzasida kolonial urushlar siyosatini olib bordi.

Moliyaviy kapital salmog'i ortib bordi. Yetakchi kapitalistik davlatlar o'rtasidagi raqobat va ziddiyatlar oxir-oqibat I jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Shu bilan birga bu davr sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi, ishchi harakatining ancha jonlanishi, kasaba uyushmalarini tashkil etishga bo'lgan

harakat bilan xarakterlanadi.

XX asr boshlaridagi adabiy jarayonlar ana shunday murakkab sharoitda rivojlandi va bu adabiy jarayonlar dunyoning turli mamlakatlarida turlicha kechdi. Birinchi jahon urushi va kapitalistik dunyodagi inqirozning kuchayib borishi G'arbda o'ziga xos adabiy oqim "yo'qotilgan avlod adabiyoti" dab ataluvchi yo'nalishni dunyoga keltirdi. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari millionlab insonlar boshiga kulfat keltirdi. Bu jahon urushlarida millionlab kishilar halok bo'ldi, millionlab kishilar jarohatlandi.¹

Jeffrey Volsh ta'kidlashicha "Urush adabiyoti" atamasi chegaralangan bo'lishi mumkin. Urush bo'lmagan paytlarda ham urush haqida ko'pgina asarlar yaratilgan, ammo urush davrida yaratilgan asarlar o'zining hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Bunday olib qaraganda urush va tinchlik o'rtasida mutanosiblik mavjud. XX asrda urush atamasi barcha uchun umumiy ma'noga ega bo'ldi. Bu atama askar va fuqaro o'rtasidagi odatiy tafovutni yo'q qildi, tinchlik va urush o'rtasidagi farqni mavhumlashtirdi.²

Amerika adabiyoti va yozuvchilari uchun I va II jahon urushlari o'sha davrning dolzarb mavzu va muammolaridan biri edi. Amerikada yuz bergan Fuqarolar urushi, I va II jahon urushlari AQSH adabiyotining nodir namunalari yaralishida alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrlarda yaratilga AQSH adabiy merosini Stefen Kreynning "Mardlikning qizil belbog'i", Ernest Hemingueyning "Alvido, qurol!", Norman Meyloming "The Naked and the Dead" kabi asarlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Birinchi jahon urushi va kapitalistik dunyodagi inqirozning kuchayib borishi G'arbda o'ziga xos adabiy yo'nalish "Yo'qotilgan avlod adabiyoti" dab ataluvchi yo'nalishni dunyoga keltirdi. Ernest Heminguey, Uilyam Folkner, Jon Dos Passos, Skott Fitsjerald, Hart Kreynlaming urush mavzusida yuksak badiiy saviyadagi asarlari 20-30 yillar adabiyotining yorqin sahifasi bo'lishi bilan birga jahon adabiy jarayoniga ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazdi.

¹ Azizov Q. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi" 1987.12-bet.

² Walsh Jeffrey. American War Literature. New York: St. Martin's Press, 1982, page 6.

Birinchi jahon urushi davrida yaratilgan Jon Dos Passosning “One Man’s Initiation”, “Three Soldiers”, Kammingning “The Enormous Room”, Ernest Hemingueyning “Bizning zamonda”, “Alvido, qurol!” kabi asarlari Amerikaning birinchi jahon urushiga nisbatan norozilik kayfiyatida bo’lganini, tushkunlikka berilganini ifodalashga keng xizmat ko’rsatgan. Bu asarlarda urushning qanchalik sovuq, shafqatsiz va berahmli o’z aksini topgan. Villa Katerning “One of Ours” va Edis Vartoning “Son at the Front” kabi asarlarida ittifoqdosh mamlakatlarning tarkibida urushga qarshi kurashishni sharaflaganlar.¹

Ikkinchi jahon urushi davrida yaratilgan asarlar birinchi jahon urushi davrida yaratilgan asarlardan sezilarli darajada farq qilardi. Zamonaviy urush usullarining shafqatsizligi, insonlarning texnika mashinalariga bo’ysundirilishi I jahon urushi adiblarini dahshatga solgan bo’lsa, bu holat II jahon urushi adiblari tomonidan shak- shubhasiz oddiy hol sifatida qabul qilindi.

Birinchi jahon urushi davrida fuqarolar oziq-ovqat yetishmovchiligi, turli mahsulotlarning taqchilligidan jabr tortgan bo’lsalar-da, urush maydonlari dahshatidan yiroqda edilar. Biroq, urush maydonlaridagi dahshatlar ikkinchi jahon urushi vaqtida Dresden, Hiroshima va Nagasaki shaharlarida yuz bergan mash’um voqealar dahshati oldida hech nima bo’lmay qoldi.

Adabiyot tarixchisi Malkolm Kovley birinchi va ikkinchi jahon urushi oraliqidagi davrni Amerika adabiyotining “ikkinchi gullash” davri deb ta’riflaydi. Shak-shubhasiz, Amerika adabiyoti bu davrda yetuklikning yangi darajasi va boy xilma-xillikka erishdi. Bu davrning ko’zga ko’ringan adiblari tomonidan yaratilgan asarlar ikkinchi jahon urushidan keyin chop etildi. Bu davrda Ernest Heminguey, Steinbek, Ketrin Anna Porter, Robert Frost, Tomas Eliot, Stivens, Mariana Mur, Kammings, Vilyam Karlos, Gvendolin Bruk, Yujin Oneil, Robert Penn kabi bir qancha adib va shoirlar samarali ijod qilib, davrning nodir namunalarini yaratishga muvaffaq bo’ldilar.

¹ Lundberg David. The American Literature of War: The Civil War, World War I, and World War II. Tufts University Press, 2001, page15.

Norman Meylorning “The Naked and The Dead”, Irving Shovning “Yosh sherlar” (“The Young Lions”), Jeyms Jonsning “The Thin Red Line” kabi asarlari ikkinchi jahon urushining oʻziga xos jihatlari, uning achchiq va alamli oqibatlarini yoritishga bagʻishlangan asarlardir. Bu davrda samarali ijod qilgan adiblardan yana biri Jeyms Jons boʻlib, uning “From here to eternity”, “Whistle”, “The thin red line” kabi asarlarida urush davri harbiylarining jasorati, front orti voqealari, inson qadr qiymati mohirlik bilan tasvirlangan.¹

Uilyam Folkner ham urush mavzuida samarali ijod qilgan adiblardan biri sanaladi. Adib oʻzining “Soldat sharafiga” nomli romanida urushning tub mohiyatini koʻrsatadi, uning “vatanparvarlik”, “qahramonlik”, “muqaddas qurbonlar”, “harbiy shon-shuhrat” kabi niqoblarini olib tashlaydi. Urush mohiyat-eʼtibori bilan “Chikago mushtlashuvlaridan farq qilmaydi, uning birgina farqi goʻshtni bu yerda yerga koʻmadilar”. Mana shu fikr urushdan keyingi butun bir avlodning hayotiy xulosasiga aylanadi.²

Adibning “Rohibaga atalgan rekviem” asarida maʼnaviy pok shaxsni tasvirlashga qaratilgan boʻlsa-da, asar voqealari I jahon urushi yillari Fransiyada boʻlib oʻtadi. Polklardan birining askarlari jangga kirishishdan bosh tortadilar. Ularga qarshi jang qilish lozim boʻlgan nemis askarlari ham hujum qilishdan bosh tortadilar. Ushbu holatning sababchisi bir komandir va uning oʻn ikki hamfikrlari boʻlib chiqadi. Gʻaroyib tinchlik oʻrnatuvchi sud qilinish, ular otuvga hukm etiladi. Asarda asosiy voqealarga parallel holda Iso Masih hayotining soʻnggi haftasi bilan bogʻliq voqealarga bir necha marotaba murojaat qilinadi.³

Urush davri adabiyotining koʻzga koʻringan namoyandalaridan biri bu Ernest Hemingueydir. Buyuk Amerika yozuvchisi Ernest Heminguey hayoti tirikligidayoq afsonaga aylangan edi. Sayohat-u sarguzashtlarga, zafar va magʻlubiyatlarga, sevgi va ayriliqlarga boy umri davomida bu ajoyib shaxs oʻlmas ijod namunlarini yaratdi. Adabiyot, badiiy ijod uning hayoti mazmunini tashkil

¹ Lundberg David. The American Literature of War: The Civil War, World War I, and World War II. Tufts University Press, 2001, page 19.

² Normatova Shoir. Jahon adabiyoti. T.: “Choʻlpon” nashriyoti, 2008 66-bet.

³ Azizov Q. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T.: “Oʻqituvchi” 1987, 109-bet.

qilardi. Ernest Heminguey 1899-yil 21-iyulda Chikagoning Ouk-Park shahrida dunyoga keldi. Bo'lajak yozuvchi ijodini juda erta boshladi. Ouk-Park maktabida o'qib yurgan paytlaridayoq maktab gazetalarida uning hikoya va she'rlari bosilib turardi. Maktabni tamomlagach, 1917-yilda Heminguey armiya xizmatiga kirmoqchi, birinchi jahon urushida qatnashmoqchi bo'ladi. Biroq ko'zi jarohatlanganligi sababli armiyaga chaqirilmaydi. Shu sababli 1917-1918- yillarda Kanzas gazetasi "Star"da muxbir bo'lib ishlaydi. 6 oy o'tgach ko'ngilli sifatida Yevropa armiyasiga qabul qilinadi. Italiya-Avstriya frontida qizil Xoch Amerika otryadining haydovchisi bo'lib xizmat qiladi. 1918-yilda oyog'idan yaralanadi, shu holda yarador italiyalik soldatni jang maydonidan olib chiqadi. Jangda ko'rsatgan mardliklari uchun ikki marotaba Italiya ordenlari bilan taqdirlanadi. Gospitalda davolanayotganda amerikalik shafqat ahmshirasini sevib qoladi (bu sevgi tarixi oradan o'n yil o'tgach "Alvido, qurol!" asarining dunyoga kelishiga sabab bo'ladi).

Urushdan keyin Heminguey qisqa vaqt Chikagoda jurnalistlik qildi. 1921 yilda u Toronto Yulduzi gazetasida muxbirlik qilish uchun Parijga keldi. Fransiyada yashab yurgan kezlari Heminguey juda ko'p sayohat qildi, Parijda yashovchi amerikalik yozuvchilar Gertruda Stayn, Ezra Paund, Skott Fitsjerald bilan tanishadi. Heminguey ilhom bilan ijodga sho'ng'iydi. Uning shiori "Muhimi bir satr bo'lsa ham haqiqatni yozish, qolgani esa o'z-o'zidan bo'laveradi" edi.¹

Hemingueyning ilk kitobi 1923-yilda "Uch hikoya va o'n she'r" ("Three Stories and Ten Poems") nomi bilan chiqadi, keyinroq esa "Bizning zamonda" ("In Our Time") hikoyalar to'plami bosiladi. Mazkur to'plam Hemingueyning o'ziga xos uslubi, o'z qahramonini topganidan dalolat beradi. 1926-yilda Sh. Andersonning romanlaridan biriga parodiya tarzida "Bahor yomg'irlari" ("The Torrents of Spring") romani e'lon qilinadi. 1926-yil oktabrida Heminguey "Quyosh baribir chiqaveradi" ("The Sun Also Rises") romanini yozib tugatadi. Asar yozuvchiga katta shuhrat keltiradi, Hemingueyni yosh va umidli ijodkor deb tan oladilar. Roman urushdan keyingi yo'qotilgan avlod ruhiyatini, kayfiyatini aks

¹ Normatova Shoira Jahon adabiyoti. T.: "Cho'lpon" nashriyoti, 2008 58-bet.

ettiradi. Uning qahramonlari I jahon urushidan keyingi tushkun holat girdobidagi, urush tufayli ruhan mayib qilingan kishilardir.

1927-yilda uning “Ayollarsiz erkaklar” (“Men Without Women”) to’plami chiqadi. Shundan so’ng Heminguey Amerikaga qaytadi, Floridada qo’nim topadi va o’zining ikkinchi romani “Alvido, qurol!” (“A Farewell to Arms”) ni yakunlaydi. Uning asosiy sahnasi I jahon urushi davridagi Italiya frontida bo’lib, unda ikki yoshning qisqa baxti tasvirlanadi. Bu asar yozuvchiga katta muvaffaqiyat keltirdi.

30-yillarga kelib, Heminguey ijodida bir qadar tushkunlik kayfiyati kuzatiladi. Bunga sabab qilib yozuvchini “shon-shuhrat mast qilib qo’yganligi” deb ko’rsatadilar. Bunga dalil tariqasida Hemingueyning o’zini “Chinakam erkak” qilib ko’rsatishga intilishi, ispan korridasiga, yirtqich hayvonlarning afrikacha ovga bo’lgan ehtirosi, atrofidagilariga bepisand munosabati kabilarni keltiradilar. Bu davrda yaratgan asarlari “Tushdan keyingi o’lim” (“Death in the Afternoon”), ispan korridalarini aks ettiruvchi “Afrikaning yashil do’ngliklari” (“Green Hills of Africa”), Afrikaga bo’lgan sayohat kundaliklari, voqealari Floridada kechuvchi “Hayot mamot” (“To Have and Have Not”) qissasi kabilardir.¹

30-yillar yozuvchining ijodidan faqat ikki hikoyasi “Frensis Makaombeming qisqa baxti” (“The Short Happy Life of Francis Macomber”) va “Klimanjar o’qlari” (“The Snows of Kilimanjaro”) tanqidchilikning ijobiy bahosini olishga muvaffaq bo’ldi.

Ispaniyadagi fuqarolar urushi Heminguey ijodida tub burilish yasadi. U o’zini chin ijodkor sifatida namoyon qildi. Buyuk iste’dod egalari jamiyat dardlariga nisbatan o’ta ta’sirchanliklari bilan ajralib turadilar. Hemingueyning ispan urushiga faol munosabati ham shuning dalilidir. Respublikachilar uchun pul yig’ib yozuvchi Shimoliy Amerika gazeta assotsiatsiyasi harbiy muxbiri hamda “Ispaniya yeri” hujjatli filmining ssenariy muallifi sifatida Ispaniyaga yo’l oladi.

Ispaniyaga ikkinchi sayohatidan so’ng Heminguey “Beshinchi kolonna” (“The Fifth Column,”) nomli pyesasini yozadi, unda 1937- yilda Madridning

¹ Normatova Shoir. Jahon adabiyoti. T.: “Cho’lpon” nashriyoti, 2008 58-bet.

qamal qilinishi tasvirlangan. Hemingueyning bu davr ijodidan eng yorqin asar “Qo’ng’iroq kimni chorlaydi” (“For Whom the Bell Tolls”) romanidir. Roman Ispaniyadagi fuqarolar urushi voqealariga bag’ishlangan. Asar yozuvchiga juda katta shuhrat keltirdi.

1944-yili Londonga harbiy muxbir sifatida yo’l oladi. Britaniya g’arbiy havo kuchlarida xizmat qiladi va 1944-yilning avgustida Amerika qo’shinlari bilan birgalikda Parijga kirib keladi. Yozuvchi ittifoqchilarning harbiy harakatlarida faol ishtirok etadi, hatto muxbirligini unutib yuborayozadi, jasorati uchun bronza medali bilan taqdirlanadi.¹

1950-yilda “Daraxtlar soyasidagi daryo” (“Across the River and Into the Trees”) romani e’lon qilinadi. Asar voqealari ikkinchi jahon urushini aks ettiradi, Italiyada kechadi. Tanqidchilik bu romanni sovuq kutib oldi. Yozuvchini sentimentallikda, o’ziga o’ta bino qo’yib yuborganlikda aybladilar. Hatto bu romanga feleton, parodiyalar ham yozildi.

Biroq 1952-yilda dunyo yuzini ko’rgan “Chol va dengiz ” (“The Old Man and the Sea”) romani yozuvchi ijodiga nisbatan yuzaga kelgan ishonchsizlikni, uning iste’dodi so’na boshladi, degan qarashlarni tumanday tarqatib yubordi. Keksa, omadsiz baliqchi haqidagi g’amgin lirik qissa tanqidchilik va keng kitobxon ommasi tomonidan yuksak baholandi. Butun dunyoga Hemingueyning shuhrati taraldi. 1953-yilda bu asari uchun yozuvchi Pulitzer mukofoti bilan taqdirlandi. 1954-yilda esa Heminguey “Chol va dengiz ” romanida yana bir karra namoyish etilgan yozuvchilik mahorati uchun hamda zamonaviy nasrga ko’rsatgan ta’siri uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Mukofot topshirish marosimida Shved akademiyasining a’zosi Anders Esterling Hemingueyga “davrimizning eng ahamiyatga molik adiblardan biri” deya baho beradi.

1961-yilning 2-iyunida Heminguey kasalxonada, unga ruhiy xasta, tushkunlikka tushish kabi tashxislarni qo’ygach, ortiq ijod qila olamsligini anglab yetib, o’z joniga qasd qiladi. Hemingueyning o’limi dunyo san’at ahlini larzaga soldi. Amerika adabiy tanqidchisi Edmund Uilson “bu hodisa butun bir

¹ Boynazarov Fayzulla. Jahon adabiyoti. T.: “O’qituvchi” 2003, 65b

avlodimizning tamal toshlaridan biri to'satdan qulab tushishi bilan teng" deb yozadi.¹

Urushdan keyingi davrga kelib, faqat amerika adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham roman janrida ijod qilish bir oz susaygan edi. Tadqiqotchilar buning sababini I jahon urushi bilan bog'laydilar. Hattoki hazillashib, "Xayolparast yozuvchilar jang sirlarini o'rganaman deb urushga ketib qolishgan edi" deyishadi.

"Alvido, qurol!" romani bilan bir davrda yaratilgan romanlarda ko'plab amerika yoshlarining urushda ko'rsatgan qahramonligi, tirik qolganlarning o'z yurtiga shon-sharaf bilan qaytib kelish voqeasi tasvirlangan edi.

Adib "Alvido, qurol!" romanida, o'sha paytda amerika adabiyotida yuzaga kelgan "Yo'qotilgan avlod" deb nomlanuvchi davrning xususiyatlarini va o'sha davr kishilarning fojeasini tasvirlab bergan. Bu davrning o'ziga xosligini dastlab Ernest Hemingueyga amerika adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Gertrud Steyn tushuntirib o'tgan bo'lsada, bir o'rinda Heminguey unga "Siz o'zingiz yo'qotilgansiz" deya hazillashganligini ta'kidlaydi.²

"Yo'qotilgan avlod" davri odamlari birinchi jahon urushining dahshatlarini barchasini o'z boshidan kechirgan kishilardir. Urushdan keying davr kishilari hayotdan ko'ngli sovigan, yashashga ishtiyoqi yo'q edi, chunki ular barcha qurbonlar va o'limlarning foydasiz ekanligini tushunib etgan edilar. "Yo'qotilgan avlod" davrining vakillari hayotdagi maqsadsizlik va uni ruhiy o'lim bilan yakun topishini ko'rsata olganlar.

Ernest Heminguey romanida esa urushning mohiyati nimada, kimga kerak bu mudhish urush degan ma'no ko'rsatiladi. Millionlab o'g'lonlarning behuda o'lib ketishiga kim aybdor? Nima uchun urushayapmiz degan fikrlar ilgari suriladi. Shuning uchun ham bu roman amerika jamoatchiligida kattagina shov-shuvga sabab bo'ldi. Hattoki, bu roman uchun bir guruh tanqidchilar adibga turli xil

¹ Normatova Shoira Jahon adabiyoti. T.: "Cho'lpon" nashriyoti, 2008 60-bet.

² Baker, Carlos. Ernest Hemingway, A Life Story. New York: Charles Scribner's Sons, 1969, page 78

bo'htonlar yog'dirishdan ham to'yishmaydi, ammo o'sha davrdagi kitobxonlar aynan shu ruhdagi asarni ijobiy qabul qilishadi.

Adib “Alvido, qurol!” romanida, o'sha paytda amerika adabiyotida yuzaga kelgan “Yo'qotilgan avlod” deb nomlanuvchi davrning xususiyatlarini va o'sha davr kishilarning fojeasini tasvirlab bergan. Bu davrning o'ziga xosligini dastlab Ernest Hemingueyga amerika adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Gertrud Steyn tushuntirib o'tgan bo'lsada, bir o'rinda Heminguey unga “Siz o'zingiz yo'qotilgansiz” deya hazillashganligini ta'kidlaydi.¹

“Yo'qotilgan avlod” davri odamlari birinchi jahon urushining dahshatlarini barchasini o'z boshidan kechirgan kishilardir. Urushdan keying davr kishilari hayotdan ko'ngli sovigan, yashashga ishtiyoqi yo'q edi, chunki ular barcha qurbonlar va o'limlarning foydasiz ekanligini tushunib yetgan edilar. “Yo'qotilgan avlod” davrining vakillari hayotdagi maqsadsizlik va uni ruhiy o'lim bilan yakun topishini ko'rsata olganlar.

Adibning birinchi romanida I jahon urushi va urushning fojeali oqibatlari ko'rsatilgan - ayni shu jarayonda “Yo'qotilgan avlod” davri xususiyatlari mujassamlashgan.²

Urush mavzui Heminguey ijodining barcha boshqichlarida muhim o'rin tutadi. Uning 1929-yilda nashr qilingan “Alvido, qurol!”, ispan respublikachilariga bag'ishlangan “Bong kimni yo'qlaydi?” (“For Whom the Bell Tolls”), vafotidan keyin e'lon qilingan “Okeandagi orollar” kitoblarida ham urush mavzusi qalamga olingan. O'z umri davomida u ko'p urushlarni ko'rdi va ana shu hayotni tasvirladi. U dunyo ishlariga o'z hayoti orqali aralashadi, dunyoni o'ziga xos buyuk bir insoniy muhabbat bilan sevdi. Hemingueyning hayoti uning romanlarida aks etgani haqida juda ko'p gapiradilar. Heminguey hikoyalarini o'qigan kitobxon uning yangi romanini axtaradigan bo'ldi, o'qimaganlar yozuvchining “Afrikami yoki biror orolda tushgan suratini uylariga osib qo'yishga odatlandilar.

¹ Baker, Carlos. Hemingway and his critiques. New York press, 1961, page 87

² Vanspanskeren K. Outline of American literature. 1975 page 147

Namunaga o'ch yoshlar “ Alvido, qurol!” va “ Klimanjaro qorlari” ning har bir satrini yutoqib o'qidilar, yangi nashr nafasini sezib, o'zlari bilgan va bilmagan holda, taqlid qila boshladilar. Lekin Hemingueyga o'xshashdan ko'ra, o'xshashga intilish hissi kuchli edi. Bu urushning dastlabki va keyingi kunlariga o'xshamaydimi? Bir necha hujum va mudofaalaridan so'ng jangchilarning sarasi sarakka, puchagi puchakka aylandi.¹

“Alvido, qurol!” singari asarlar o'z otangizni tanib olishga yordam beradi. Axir, otalarimizning juda ko'pchiligi urushda qatnashganlar- ku...

Ular urushga qahramon bo'lish uchun borgan emas, dushmani yakson qilish kerakligini, o'zlari halok bo'lishi mumkinligini bilardi... Balki urush degani ba'zilarga g'oya shaklida ko'rinar. Urush – biologik hodisa deb jar solayotganlar ozmi? Lekin odam quruq g'oya emas. Front sahna emas, unda yog'och pichoqlar bo'lmaydi... Heminguey qahramonlarining aytmagan so'zlari menga ana shunday eshitiladi.

Qirq birinchi yil Elbada uchrashgan o'zbek va amerikalik jangchining bir-biridan hech bir farqi yo'q. Ular bir-biriga egizakdek o'xshash, ulardan biri sharqdan, ikkinchisi g'arbdan shu daryo bo'yigacha og'ir yo'lni bosib o'tdi. Bu masofa ularning qiyofasiga shiddatvor sayqal berdi. Mabodo ular bugun uchrashgudek bo'lsalar bir-birini so'zsiz, imo-ishorasiz tushunadilar. Bir-birlariga mehr bilan ammo g'oyat vazmin tikilardilar.

1937 yili amerika yozuvchilarning Ikkinchi Kongressida Ernest Heminguey minbardan shunday degan edi: Men yaxshi va haqqoniy asarlar yozish naqadar qiyinligini, mabodo, ular yozilgudek bo'lsa muallifni, shubhasiz, shunga loyiq mukofot kutib turganini aytgan edim. Lekin urush davrida – biz urush davrida yashamoqdamiz, istasak-istamasak, mukofotlar muddati sal cho'ziladi... Urush haqida bor gapni yozish qaltis... Haqiqiat izlab Ispaniyaga jo'nagan birorta amerikalik yozuvchini bilmayman. Biroq Linkoln nomidagi batalyon jangchilarning ko'pini bilaman ammo ular yozuvchi emas. Ular maktub yozadilar, xolos.

¹ Baker Carlos, Hemingway and his critiques. New York press, 1961, page23

Ispaniyaga juda ko'p ingliz juda ko'p nemis va gollandlar bordilar. Odam haqiqat izlab frontga borarkan, haqiqat o'rnida o'limga duch kelishi ehtimoli bor. Lekin frontga o'n kishi ketib, ikkitasi omon qaytsa, ular olib kelgan haqiqat – biz tarix deb yurgan soxta narsalardan yiroq – chinakam haqiqat bo'ladi. Bunaqa haqiqatni, izlab hayotni xavf ostiga qo'yish lozimmikan - bu yozuvchilarning o'ziga havola.¹

Bu nutq fashizm avjiga chiqqan zamonda, Ispaniyada - Franko, Olmoniyada Gitler, Italiyada - Mussolini kabi shaxslarning g'ayriinsoniy g'oyalar vabodek tarqayotgan paytda yangradi. Hemingueyning urushga munosabatini “Alvido, qurol!” asarining so'z boshisida keltirilgan muallif gaplaridan payqash qiyin emas: “Men ko'p urushlarda qatnashdim, shuning uchun bu masalada g'arazim qattiq, hatto juda ham qattiq. Bu kitobning muallifi ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar, eng ajoyib odamlardir, frontning qizg'in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko'proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o'ylamaydigan to'ng'izlardir. Men urushda boylik orttirganlar, urush olovini yoqqanlar urushning birinchi kunlaridayoq mamlakat fuqarolarining muxtor vakillari tomonidan otib tashlanmog'i zarur deb hisoblayman.”²

¹ Muhammad Solih “Iqror” Ernest Heminguey tavvaludining 85 yilligiga, 1979y. 15 son

² Heminguey Ernest. Alvido, qurol! T: “G'afur G'ulom” 1979. 56 bet

2. O'zbek romanchiligida urush mavzusi

Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan xalqimizning mumtoz adabiyoti merosxo'ridir. Shu bilan birga bu adabiyot uning yangi zamondagi qonuniy davomchisidir.

Muayyan jamiyatimiz o'z tarixining hozirgi davriga yetib kelguncha murakkab va sermashaqqat yo'lni bosib o'tdi. Jamiyat tarixining bosqichlari o'zaro bir-biridan farq qilganidek, hozirgi zamon o'zbek adabiyoti taraqqiyotining davrlari ham o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib, farqlanib turadi. Masalaga shu nuqtai nazardan qaralsa, hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tarixini quyidagicha bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- Milliy uyg'onish (Jadid) adabiyoti;
- XX asming 20-30 yillar adabiyoti;
- II jahon urushi va urushdan keyingi davr o'zbek adabiyoti;
- 60-80 yillar o'zbek adabiyoti;
- Istiqlol davri adabiyoti;

1941-yil 22-iyunda fashistlar Germaniyasi hujum qilmaslik to'g'risida tuzilgan shartnomani qo'pol ravishda buzib, II jahon urushini boshladi. Ko'p millatli o'zbek xalqi fashist bosqinchilariga qarshi urushga otlandi. Xalqimiz butun kuch va imkoniyatlarini yovuz dushman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etdi. O'zbek xalqi barcha xalqlar qatori II jahon urushi davrida o'zining vatanparvarlik burchini sharaf bilan o'tadi, buyuk tarixiy g'alabaga katta hissa qo'shdi.

Urush manzaralari o'zbek adabiyotining barcha badiiy qatlamlariga o'z muhrini bosdi: faqat mavzu va g'oyagina emas, balki qahramon obrazi ham o'zgardi; adabiyotimizning butun ruhi va yo'nalishi harbiy izga tushdi. 1941-1945 yillardagi urush davrida she'riyat, nasr va dramaturgiya turlarida yaratilgan aksar asarlar safarbarlik ruhiga ega edi.

II jahon urushi adabiyotning mavzu doirasi va g'oyaviy mundarijasiga katta o'zgarish kiritdi. Natijada adabiyotimizda ona Vatan mudofaasi bilan bevosita bog'liq vatanparvarlik, qahramonlik, do'stlik mavzulari asosiy o'rinni egalladi. Bu

davrdagi yozuvchilarmiz xalqlarimizning yovuz dushmanga qarshi olib borgan qahramonona kurashlarini va front orqasidagi fidokorona mehnatlarini tasvirlash orqali vatanparvarlikning ulugʻvor kuchini namoyish qildilar.

II jahon urushi yillarida Oʻzbekistonda harbiy mudofaa mavzularida “Oʻlim yovga”, “Vatan uchun”, “Mard oʻgʻil”, “Oʻzbeklar”, “Vatan chaqirigʻiga javob”, “Armugʻon”, “Oʻzbekiston bahodirlari” kabi bir qator adabiy-badiiy toʻplamlar nashr etildi.

Urush davrida oʻzbek sheʼriyatida harbiy-mudofaa mavzui asosiy oʻrinni egalladi va jangovarlik ruhi birinchi oʻringa koʻtarildi. Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, Uygʻun, Oybek, Shayxzoda, Zulfiya, Mirtemir kabi shoirlarning sheʼrlarida ona-Vatanga otashin muhabbat, yovuz dushmanga qarshi oʻtli nafrat, xalqlar doʻstligi, vatanparvarlik, qahramonlik va insonparvarlik gʻoyalari samimiyat bilan ifodalandi. Gʻafur Gʻulomning “Sharqdan borayotirman”, Hamid Olimjonning “Ona va oʻgʻil”, “Qoʻlingga qurol ol!”, “Ishonch”, Oybekning “Zafar yoʻllari”, Maqsud Shayxzodaning “Kurash nechun?”, “Jang va qoʻshiq” kabi toʻplamlarga kiritilgan jangovar sheʼriy asarlar ana shundan dalolat beradi.

Urush yillarida oʻzbek nasri ham davr talablariga mos ravishda oʻsdi. Oʻzbek nasrida kichik hajmli hozirjavob janrlar yetakchilik qildi. Front bilan front orqasining mustahkam aloqasini, yurtdoshlarimizning fashizmga qarshi cheksiz nafratini, Vatanga muhabbatini aks ettirishda Hamid Olimjon, Oybek, Sadriddin Ayniy, Gʻafur Gʻulom, Komil Yashin, Maqsud Shayxzoda kabi jangovar nasr janrining imkoniyatlaridan unumli foydalanganlar. Hamid Olimjonning “Men oʻzbek xalqi nomidan soʻzlayman”, “Doʻstligimiz haqida”, Gʻafur Gʻulomning “Onalar”, “Momoyi gisu naburida”, Sadriddin Ayniyning “Yarador yirtqichning jon talvasasi”, “Ona-Vatan”, Oybekning “Gʻalaba bahori” kabi shular jumlasidandir.

“Oʻzbek xalqining jangchilariga ularning el-yurtlaridan maktub” (1942, mualliflar jamoasi) nomli asar urush yillaridagi oʻzbek nasrining yetuk namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asarda oʻzbek xalqining vatanparvarligi va birodarligi taʼsirli qilib ochib berilgan.¹

¹ Mirzayev S, Shemuhammedov S. Hozirgi zamon oʻzbek adabiyoti tarixi. T.: “Oʻzbekiston”, 1993, 23 bet

Oybekning “Fidokor qizlar”, Gʻafur Gʻulomning “Eri bilan bahs boylashgan xotin”, Oydingning “Shiringa maktub”, Poʻlat Tursunning “Oq oltin”, Said Ahmadning “Farhod ostonalarida” kabi ocherklarida xalqimizning front orqasidagi fidokorona mehnatlari koʻtarinki ruh bilan aks ettirilgan.

Bu davrda teatrlarimiz sahnasidan xalqimizning urush yillaridagi jangovar hayotini, uning fashizmga qarshi mardonavor kurashini aks ettiruvchi sahna asarlari keng oʻrin oldi. “Oʻzbekiston qilichi”, “Davron ota”, “Oʻlim bosqinchilarga”, “Oftobxon”, “Qasos”, “Ota rozi”, “Sinov kunlarida”, “Azim pushka”, “Ona” singari sahna asarlari shu davming mevasi boʻlib, bu sahna asarlari zamon talablariga binoan tezkorlik bilan yozilgan.¹

Shuni aytish joizki, II jahon urushi yillarida sheʼriyat va nasr singari dramaturgiyada ham davr talablariga javob berish y o lidan borib, muayyan yutuqlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlar II jahon urushidan keyingi davrlarga kelib, yanada koʻpaydi va mustahkamlandi.

XX asrning soʻnggi choragida II jahon urushi mavzuida, xalqimizning front va front orqasidagi jangovar hayoti haqida Oybekning “Quyosh qoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar”, “Oltin zanglamas”, Sharof Rashidovning “Qudratli toʻlqin”, Ibrohim Rahimning “Fidoyilar”, Said Ahmadning “Hijron kunlarida”, V. Gʻafurovning “Vafodor”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson”, Odil Yoqubovning “Er boshiga ish tushsa ” kabi romanlar yozildi. Bu asarlarda II jahon urushining mohiyati, maqsadi, bu davrdagi xalq qahramonligi keng koʻlamda haqqoniy aks ettirildi. Jangchilarimizning ajoyib obrazlari yaratildi.

Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanidagi oʻn toʻrt norasidaning har biri dramarik taqdirga ega, ular urush tufayli ota-onasidan, aka-ukalaridan, tugʻilib oʻsgan yurtidan judo boʻlganlar, har bir kichik qalbning oʻz gʻam-gʻussasi, armoni bor. Muallif kichik qalbning katta dramasini ayrim-ayrim lavhalarda chiza boradi. Biroq yozuvchini bunday dramatik holatlardan xalos etish muammosi, bolalar taqdirida kattalarning, oliyjanob odamlarning tutgan oʻrni qiziqtiradi, ularning

¹ Mirzayev S, Shemuhammedov S. Hozirgi zamon oʻzbek adabiyoti tarixi. T.: “Oʻzbekiston”, 1993, 24-25bet

taqdiri uchun kurash asarning yetakchi leytmotiviga aylanadi. Yozuvchi Mahkam aka va Mehri opalar timsolida o'zbek xalqining Vatan urushi yillarida ado etgan ulug' missiyasini – minglab ota-onasidan ayrilgan go'daklarni saxiylik bilan o'z bag'riga olishi, balo-ofatlardan omon saqlab qolishi hodisasini, xalq xarakteriga mos yetimparvarlik, oliyjanoblik va yuksak insonparvarlikni ifoda etishga intiladi. Shu tariqa muallif urush davrining muhim bir haqiqatini ochadi.

Mirmuhsinning “Degrez o'g'li” romanida hayajonli bir epizod bor. Unda Subhiya ismli alomat qizaloqning urush tufayli oilasidan judo bo'lishi va halokati hikoya qilinadi. Urush odamzod uchun zo'r sinov bo'lgan edi. Urush qiyinchiliklari odamlardagi odamiylikni, yuksak fazilatlarini namoyish etish bilan birga, ayrimkimsalardagi insoniylikka rahna soldi. Subhiya odamgarchilikdan mahrum odamlar orsaida, ularning e'tiborsizligi tufayli halok bo'lib ketadi. Butun bir mahalla „, nahotki shu bitta qizaloqning qornini to'ydirib qarolmadi! Nahotki birorta odam asrabqola olmadi! ” deya hayqiradi asar qahramoni Arslon. Shu fojia yuz bergan paytda Subhiyaning otasi Boymat xotini va qizining taqdirini mahalla ixtiyoriga tashlab, qo'lida qurol, okoplardan-okoplarga yugurib nemis bilan jang qiladi, uning shundoq eshigi eshigiga ro'para qo'shnisi esa hatto Subhiyaning tobutiga ham yaqinlashmaydi. Har ikkala yozuvchi ham urush davri haqiqatini, dramasini ochib beradi. Axir urush inoniyat boshiga tushgan ulkan fojia edi-da!¹

Noyob iste'dod sohibi O'tkir Hoshimov adabiyotga Abdulla Oripov, Omon Muxtorov, Shukur Xolmirzaev singari bir qator tengdoshlari bilan birga kirib keldi. O'sha paytda adabiyotimizning Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda singari ulkan yozuvchilari hayot bo'lib, ularning nazariga tushish hammaga ham nasib qilavermasdi. O'tkir Hoshimov esa Abdulla Qahhordek mashhur san'atkor e'tiborini jalb qilgan Yoshlardan edi.

O'tkir Hoshimov 1941-yil Toshkentda oddiy ishchi oilasida tug'ildi. U o'rta maktabni bitirgach, 1959-64-yillar Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida ta'lim oldi. O'tkir Hoshimov o'z ijodini she'r va

¹ Normatov U. Etuklik T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982, 65-67bet

ocherklar yozishdan boshladi. 1962 yilda uning “Po`lat chavandozlar” ocherklar to`plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo`liga borib tegdi. Uning ilk qissasi “Cho`l havosi” (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa haqida o`sha paytda juda yaxshi fikr bildirgan. O`tkir Hoshimovning bu qissasiga yozgan oq yo`lida u “Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo`ladi”, - deb bashorat qilgan edi. Shu asardan yozuvchining izlanish va mashqlar davri boshlandi. Adib ijodidagi ilk qadamlaridayoq inson ma`naviyati, ruhiyati, hissiyoti, qalb haqiqati tadqiqotchisi sifatida ko`ringan edi. Roman, qissa, hikoyalarida so`z san`atining azaliy bosh muammosi - inson taqdiri va qalbining badiiy tahlili ham mavjud edi.

Muallif dolzarb ijtimoiy muammolar talqini bilan yondosh holda ko`p o`rinlarda personajlar ruhiyatidagi g`oyat nafis jarayonlarni san`atkorona ifoda etardi. “Cho`l havosi”, “Muhabbat”, “Nigora”, “Shamol esaveradi” nomli hikoya va qissalar shundan dalolatdir. Keyinroq u dolzarb, ijtimoiy muammolar talqiniga ko`proq moyillik bildirib, ayni zamonda bevosita ma`naviyat, ruhiyat tahliliga bag`ishlangan asarlar ustida ish olib bordi. Yozuvchining shu yo`nalishdagi “Qalbingga quloq sol” (1973), ayniqsa, “Bahor qaytmaydi” (1970), “Dunyoning ishlari” (1982) qissalari unga katta shuhrat keltirdi.

Yozuvchining birinchi romani - “Nur borki, soya bor” 1977 yili nashr qilindi. Roman chiqishi hamono turli fikr-mulohazalarga sabab bo`ldi. Asarda ko`pgina hayotiy, muhim ahamiyatga ega muammolar ko`tarilgan edi. Bular azaldan kishilik jamiyatining falsafasi bo`lmish “nur” va “soya”lar orasidagi kurash, tortishuv fonida yoritiladi. Bundan tashqari, O`tkir Hoshimov O`rta Osiyo respublikalarining qator teatrlarida namoyish qilingan “To`ylar muborak”, “Sizdan ugina, bizdan bugina”, “Inson sadoqati”, “Qatag`on” kabi sahna asarlarining muallifidir.

O'tkir Hoshimov E.Heminguey, K.Simonov, A.Kuprin, O.Berggols singari yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan.¹

Ijodkor 80-yillar o'zbek publisistikasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan adiblardan biridir. Uning odob-axloq, ma'naviy olam, milliy qadriyatlar, sho'ro davri adolatsizliklarini dadil yoritgan ocherk va teleko'rsatuvlari bu davrning barkamol mevalaridir.

Muallifni endi kundalik dolzarb ijtimoiy masalalar emas, ko'proq azaliy ma'naviy muammolar, inson taqdiri, uning qalbi jumboqlari qiziqtiradi. Bu narsa "Ikki eshik orasi" romanida ayniqsa, ravshan ko'rindi. Bu bilan adib ijodiy yo'lining yetuklik bosqichi boshlandi.

Hayotdagi illatlarga qarshi ayovsiz o't ochish istagi O'tkir Hoshimovni "Ikki eshik orasi" romanidan keyin tadrijiy ravishda hajviyotga murojaat qilishga olib keldi. Oqibatda uning "Ikki karra ikki - besh" qissasi maydonga keldi. Yozuvchining ilgari asarlarida ahyon-ahyonda hajviyot uchrab turar edi. "Ikki karra ikki - besh" qissasi esa, ulardan butunicha hajviy uslubda yozilganligi bilan farq qiladi. Hajviyot tig'ini hayotdagi martabali kishilarga, katta rahbarlarga, xususan, raislarga qaratgani va ularning ma'naviy tubanligini ro'yi-rost fosh qilishga intilgani bilan yozuvchi qissaning ko'p sahifalari ta'sirchan va qiziqarli bo'lib chiqishiga erishgan. Faqat dalillash san'atining etishmaganligi va ayniqsa, raisning o'g'li o'z otasiga qarshi keskin kurashga kirishishi yaxshi asoslanmaganligi sababli qissa 80-yillar o'zbek hajviyotidagi sezilarli hodisa darajasiga ko'tarilmay qoldi.

Yuqorida tilga olingan so'nggi ikki asarida O'tkir Hoshimovning inson ma'naviy olamini, psixologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli foydalangan. Ichki monologlar qo'llashda yuqoridagi asarlarda boshlangan usuldan yozuvchi "Tushda kechgan umrlar" romanida yanada ustalik bilan foydalandi. "Tushda kechgan

¹ Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. T.: "Fan" nashriyoti, 1993, 147 bet

umrlar” romanida voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash’um “qatag’on” qilish manzaralari, 80-yillarda Afg’oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo’lgan “o’zbek ishi” mojarolari. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog’lashda, ular orasiga “biriktirish nuqtasini” topishda muallif ichki monologdan unumli foydalanadi.¹

O’zbekiston xalq yozuvchisi (1991) O’tkirHoshimov «Dunyoning ishlari» qissasi uchun Oybek nomidagi (1982) hamda «Ikki eshik orasi» romani uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga (1986) sazovor bo’lgan. Adibning ijodi el-yurt tomonidan e’tirof etildi. Uning roman va qissalari milliy hududdan tashqariga chiqib, umuminsoniy qadriyatlar qatoriga qo’shildi. Asarlari o’nlab xorijiy tillarga tarjima etilib, Gogol, Folkner, V. Rasputin kabi jahon adiblari asarlariga mengzaldi.

O’tkir Hoshimovning ko’pgina asarlarida urush mavzusi, uning ayanchli oqibatlari qalamga olingan. Adibning “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” romanlari, “Urushning so’nggi qurboni”, “Nega? Nega-a-a?” kabi hikoyalari shular jumlasidandir. Noyob iste’dod egasi O’tkir Hoshimov birinchi navbatda urushni qoralaydi, uning aksilinsoniy mohiyatini ochadi, uning jarohatlari ko’p yillar mobaynida odamlarga ozor yetkazishini yuqorida qayd etilgan roman va hikoyalari orqali ko’rsatib beradi. Shu bilan birga muallif oddiy odamlarning, ayniqsa, urush yillarida yorqin namoyon bo’lgan fazilatlarini, vatanparvarligini, bardoshini, matonatini ko’rsatadi.

O’tkir Hoshimovga “Urush ko’rmagansiz-u, ammo urush haqida ko’p yozgansiz. Buning sababi nimada?” deb savol bilan murojaat qilishganida u quyidagicha javob bergan edi: “Ha, ko’p yozganman. Men bu asarlarni azbaroyi urushni yaxshi ko’rganim uchun emas, undan nafratlanganim uchun yozganman. Urushda g’olib podshoh, g’olib sarkarda, g’olib armiya bo’lishi mumkin, lekin hech qachon g’olib inson bo’lmaydi. Urushda g’olib odam ham baxtsiz, mag’lub odam ham. Sababi urush odamni o’ziga o’xshagan boshqa odamni o’ldirishga majbur qiladi. Odam o’ldirgan inson esa hech qachon baxtli bo’la olmaydi.

¹ Mirzayev S, Shemuhammedov S. Hozirgi zamon o’zbek adabiyoti tarixi. T.: “O’zbekiston”, 1993, 363 bet

“Tushda kechgan umrlar” romanida bir lavha bor. Rustam tankda ketayotib, oʻliklarni mashinaga ortayotgan askarlarni koʻrib qoladi-da, toʻxtaydi. Tushib qarasa, uning eng yaxshi koʻrgan doʻsti Temurning oʻligini ham ortishayotgan edi. Temurning afti tanib boʻlmas darajada pachoqlab tashlangani uchun uni qoʻlidagi tatiurovkadan taniydi. Yana bir dahshatli holat: Temurning olati kesib tashlangan edi (Afgʻon urushida yaralanib qoʻlga tushgan askarlarning qulogʻi, burni va boshqa aʼzolarini kesib tashlash holatlari koʻp boʻlgan). Buni koʻrgan Rustam oʻzini bilmay qoladi, “quturib” ketadi... U bir hovliga tanki bilan bostirib kiradi. Hammayoq chang-toʻzon. Tankdan tushadi. Birpasdan soʻng ishkombagidagi qizil koʻylakka koʻzi tushadi. Beixtiyor yaqin boradi. Qarasa, koʻylak emas, yiqilib yotganayol ekan. Rustam uning ustiga egiladi. “Qoʻrqmang, opa, biz sizga tegmaymiz”, deb yelkasidan tutsa, ayol yonboshga agʻdariladi. Bu goʻzal ayolning oʻq teshgan boʻynidan oqqan qon yarim yalangʻoch koʻksiga tushadi. Shu payt vayrona kulbadan bir yarim-ikki yoshlardagi ishtonchang bola chiqib, entak-tentak qadam bosib, ayolning boshiga keladi. “Moʻrjona”, “moʻrjona”, (“moʻrjona”, - ona degani)deb, uni ema boshlaydi. Soʻng ilkis bosh koʻtaradi-da, chirqillab yigʻlab yuboradi. Bolaning ogʻzidan sut emas, qon oqar edi!

Urush qiyofasi - mana shu!

Rustam “Otaman! Hammangni otaman! Oʻzimniyam otaman” deb hayqiradi va hushidan ketib, kontuziya boʻlib qoladi. Uning ruhiy holatidagi oʻzgarishda nafaqat yarador boʻlishining, balki ana shu manzaralarning ham “hissa”si bor. Balki Rustam oʻsha ayolni otmagandir, boshqa bir avtomatdan otilgan oʻq tekkandir unga. Lekin oʻlib yotgan ayolning gunohi hima? Urushga borib ota boʻlish baxtidan mosuvo boʻlib kelgan Rustamning gunohi nima? Urushda qornidan xanjar yeb oʻlgan Xayriddinning, Temurning gunohi nima? Va nihoyat, sut oʻrniga onasining koʻksidan qon emgan gʻodakning gunohi nima?

Shu oʻrinda men yana bir jihatni alohida taʼkidlashni istardim. Urush shunday yovuz narsaki, hatto oradan yillar oʻtsa ham odamlar uning qurboniga aylanishi hech gap emas. “Ikki eshik orasi” bunga misol. Muzaffar ham, Munavvar ham urush koʻrgani yoʻq, ular urushdan keyin tugʻilgan. Ammo... bu ikki yoshning

uvol bo'lgan muhabbati, Munavvarning yigirma yoshda xazon bo'lgan navqiron hayoti, Muzaffarning qalbidagi shirin orzularning bir umrlik armon, hijronga aylanishi mash'um urushning o'zi bitgach, yigirma yildan so'ng ko'rsatgan "hunari" emasmi?!

Yer yuzida bo'layotgan har qanday urush - fojia. Bunday fojianing oldini olish uchun esa urush qanchalik dahshat ekanligini batafsil ko'rsatish kerak. Shuning uchun ham men urush haqida ko'p yozish kerak, deb o'ylayman."¹

I bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, Amerika va o'zbek adabiyotida birinchi va ikkinchi jahon urushi voqealari tasviri, uning kishilar hayotidagi o'mi va ta'siri har ikkala millat adiblari tomonidan o'z asarlarida yorqin aks ettirildi. Ular o'z asarlarida insoniyat boshiga kulfat solgan jahon urushlarining qay darajada dahshatli ekanligini mohirona yoritganlar. Qaysi bir adib bu voqealarga front ortidan turib nazar solgan bo'lsa, boshqa adiblar unga front lavhalaridan misollar keltirgan holda asarlarida aks ettirganlar.

Xususan, Amerika adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandasi Ernest Heminguey va o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri O'tkir Hoshimov urush mavzusida samarali ijod qilib, o'z asarlari bilan jahon adabiy merosini boyitdilar. Ulardan Ernest Heminguey ko'pincha jahon urushlaridagi front lavhalarini o'z asarlarida tasvirlagan bo'lsa, O'tkir Hoshimov bunga front orqasidan turib, urushga nisbatan munosabat bildirgan.

¹ www.kitob.uz

II BOB. “ALVIDO, QUROL!” VA “IKKI ESHIK ORASI” ASARLARIDA URUSHGA MUNOSABAT

1. Ingliz va o'zbek urush adabiyotida g'oya va mazmun mushtarakligi

Har bir badiiy asar o'zida hayotning yaxlit, bir butun manzarasini gavdalandiradi, yoki qandaydir yaxlit, muayyan, oniy his-tuyg'uni ifodalaydi. Badiiy asar hayotning o'ziga xos yaxlit, mustaqil bir parchasini qaytadan jonlantirar ekan, juda ko'plab betakror va murakkab jarayonlarni boshidan kechiradi, ayni paytda har biri yakka olam bo'lib dunyoga keladi. Ularda bizning ko'z o'ngimizda u yoki bu jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi hayotni hamda shu bosqichni tasvirlovchi voqealar va kishilar ko'rsatiladi.

Xuddi shu kabi xususiyatlarni o'zida aks ettirgan jahon adabiyotining nodir namunalaridan “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlarida jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlaridan hisoblangan birinchi va ikkinchi jahon urushlari yoritilgan.

“Alvido, qurol!” romani birinchi jahon urushi haqidagi eng yaxshi romanlardan biridir. Bu kitob Ernest Hemingueyning mashur asarlaridan hisoblanadi va shu bilan bir qatorda bir nechta tillarga ham tarjima qilingan. Bu asarning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, asar adib hayotining muhim jabhalarida o'zgarishlar yuz bergan bir jarayonda yaratilgan.

Ernest Heminguey bu asar haqidagi fikrlarni quydagicha ifodalagan. “Birinchi variantini yozayotganimda Kanzas-Sitida o'g'lim Patrik tug'ildi, uni onasining qornini yorib oldilar, men Ouk- Parkda, Illinoisda, so'ngi variant ustida ishlayotganimda otam o'zini otib qo'ydi”.¹

Bu asarni tugallaganda Ernest Heminguey endigina 30 yoshga kirgan bo'lsa-da, uning hayotidagi tushkunlik, og'ir damlar asariga ham ko'chgan. U o'z hayotidan kichkinagina bir lavhani olib uni asarida aks ettirilishi bunga misol bo'la oladi. “Alvido, qurol!” romanidagi bosh qahramonlaridan biri Ketrin misolida o'z hayotidagi o'gli tug'ilgan paytda yuz bergan fojeani anglashimiz mumkin. Shunga

¹ Heminguey Ernest. Nuallif so'z boshisi. Kuba, 1948 3b

qaramasdan “Alvido, qurol!” romani Ernest Hemingueyni uzoq-uzoqlarga tanitgan asari bo’ldi deyish mumkin.

Imperializm keltirib chiqargan bosqinchilik urushlarini nafratlashga bag’ishlangan “Alvido, qurol!” romani yozuvchi ijodida ham muhim bosqichni egallaydi.

“Alvido, qurol!” romani qisman avtobiografik roman hisoblanadi. Muallif asar qahramoni Fredrik Genrida o’z kechinmalarini: Amerikalik yigitning ko’ngilli bo’lib italyan sanitar bo’linmasiga leytenant sifatida yollanib urushning butun dahshatlari – ochlik, ifloslik, o’zaro qon to’kish va son - sanoqsiz begunoh kishilarning o’lib ketayotganlarini ko’rib, urush haqidagi fikrlarining puch xayollardan iborat ekanligini biladi va umidsizlikka beriladi. Urushda og’ir yaralanishi, urushning barcha dahshatlarini ko’rib, urushga nisbatan kuchli nafrat uyg’onishga turtki bo’ladi.¹

Romanda pessimizm va tushkunlikning shakllari XX asrda yaratilgan boshqa asarlaridagidek juda yaxshi ochib berilgan, ammo “Alvido, qurol!” romanida Heminguey “birinchi jahon urushini insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat” deya baholaydi.

“Alvido, qurol!” asari ham hayot haqiqatlari badiiy so’z bilan tasvirlab berilgan asarlardan biridir. Ernest Heminguey kitobining mazmunini anglab yetilishini xohlagan narsa – urush qayerdagi bir guruhning vakillari uyushtirgan, oddiy xalq esa qurbon bo’ladigan g’ayri oddiy bir maqsaddir.²

Ernest Heminguey urushda o’zi ishtirok etib, urush dahshatlarini o’z ko’zi bilan ko’rgandan so’ng, uning urushga bo’lgan nafrati yana ham kuchayadi. U urushda aslida bir-biri bilan birodarlashishi mumkin bo’lgan begunoh insonlar bir-birini o’ldirayotganidan g’azablanib urush olovini yoqqanlarga o’zining tuganmas nafratini izhor etishdan charchamaydi. U bu nafratni o’zining asarlarida ta’kidlab o’tganligiga qaramay, hatto, “Alvido, qurol!” romaniga yozgan so’z boshisida ham buni aks ettiradi.

¹ Wagner M. L. Ernest Hemingway A Literary Life. Palgrave Macmillan Press, 2007, page 94.

² Sexton Adam. Hemingway’s A Farewell to Arms. New York Press. 1997, page 17

“Alvido, qurol!” asarining bosh qahramonlaridan biri Fredirik Genri dastlab urushga urushayotgan tomonlardan biriga yordam berish, ularga ozgina bo'lsada ko'maklashib, urushga o'z hissasini qo'shish maqsadida ko'ngilli bo'lib kelgan amerikalik yosh yigit, urushda sanitar xizmatining leytnanti bo'lib xizmat qiladi. Bir qancha fursat urushning ichida yurib, urushning nima ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rganidan so'ng uning urush haqidagi o'y- fikrlari o'zgara boshlaydi. U haqli ravishda o'z – o'ziga nega bu urushda qatnashayapman?, kim uchun kurashayapman?, bundan foyda nima? degan savollarni beradi. Va shuni tushunib yetadiki, urush – mutlaqo foydasiz mudhish va shu bilan bir qatorda ming - minglab begunoh insonlarni o'z domiga tortib ketadigan qora o'pqon. Genri Genri bu qora bulutlarni tarqatib, ma'lum bir doira vakillarining foydasi uchun kurashishdan voz kechib, musaffolikka, tinchlikka erishib, do'stona yashash lozim, deb o'ylaydi.¹

Genrining fikricha, askarlar, haydovchilar, ishchilar va boshqa oddiy odamlar urushga qarshi birlashib, bir so'z bilan aytganda bir yoqadan bosh chiqarishlari lozim. Agar biz shunga o'xshash birliklarni ming – minglab tashkil qila olsakgina, urushga qarshi bo'lgan g'oyalarimizni odamlar ongiga singdira olamiz. Shundagina bu mudhish zulmatdan qutulib chiqish mumkin degan o'y – fikrlari tug'ilganligini guvohi bo'lamiz.²

Asarda Genri agar insonlar shu taxlit urushlar girdobida yashayversalar yuksalishga emas, balki tubanlikka yuz tutishi muqarrarligini tushunib etadi. Bu urush uning urushi emasligiga qaror qilganidan so'ng, Fredirik o'zi uchun “ajratilgan tinchlik”ni yaratadi va urushdan bezib boshqa mamlakatga qochib ketadi. Romanda ilgari surilgan yana bir boshqa mavzu – muhabbatdir. Fredirik Genri Buyuk Britaniyadan urushga ko'ngilli hamshira sifatida kelgan, Front chizig'ida yarador bo'lgan askarlarni davolashga yordam berib, urushga o'z hissasini qo'shishni xoxlagan Ketrin Berklini sevib qoladi.

¹ Sexton Adam. Hemingway's A Farewell to Arms. New York Press. 1997, page 105.

² Baker Carlos. Hemingway. Princeton University Press. 1972, page 149.

Genri urushda bomba portlab, oyog`idan yaralanib gospitalda yotgan chog`da Ketrin unga sidqidildan g`amxo`rlik qiladi. Ular orasidagi iliq munosabatlar vaqt o`tgani sari tobora quyuqlashib boradi. Urushdan ko`ngli sohib ketgan, bir – birini sevib qolgan bu ikki yosh keyinchalik birga Shvesariyaga qochib ketishadi. Shvesariyadagi dastlabki hayot juda yaxshi tinch, osuda edi. Bir qancha muddat ular birga baxtli yashashadi, ammo bu baxtli onlar uzoq davom etmaydi. Ular baxtdan masrur edi, biroq, hayot har doim bir xil davom etavermaydi. Ketrinning homiladorligi davri garchi yaxshi kechgan bo`lsada, u ko`zi yoriyotib olamdan o`tadi. Uning fojeali o`limidan so`ng Genri anchagacha yolg`iz qoladi. U shu damda juda kuchli tushkunlikda edi. Endi Ketrin yo`q, u vafot etdi. Genri hammasini biladi, biroq tan olishni istamaydi.

Muallif bu orqali XX asrning qonli urushlari davom etayotgan dunyosida individual baxtli yashash imkoniyatining mavjud emasligini isbotlab beradi. Hemingueyning qahramoni Genri baxtli bo`la olmagan qahramondir. Ketrinning vafotidan so`ng, uni atrofini g`am – anduh qurshab olganligini ko`rishimiz mumkin. U faqat o`zini o`ylab, tinchlikka, baxtga erishish uchun urushdan qochib, boshqa bir davlatga keldi. Baxtga qarshi bu erda ham uning qissasi fojeali tarzda yakun topdi, deyish mumkin.

“Heminguey yana bu bilan siz faqat o`zingiz uchungina tinchlikni ajratib ola olmaysiz degan haqiqatga urg`u beradi.” Bundan kelib chiqib, faqatgina bir kishi hech narsaga erisha olmasligi mumkin, ammo odamlar birlashsa, ulkan qudratga ega bo`lib ko`p narsaga erisha oladi deyishi mumkin.¹

Asarning bosh qahramonlari Fredrik Genri va Ketrin davom etayotgan mudhish urushni yakunlovchilar sifatida o`rtaga chiqishadi. Ularning muhabbatini urush o`rtasidagi “maxsus dunyo” deb aytishimiz mumkin. Ular faqat birga bo`lsalargina, bu dunyoda yolg`iz ekanliklarini his qilishardi va faqat shu yolg`izlikdagina ular baxtli edilar. Nihoyat, ular Shvesariyaga qochib borib o`zlarining bir qancha vaqtlardan buyon kutib yurgan tinch diyorlariga erishadilar.

¹ Sexton Adam. Hemingway's A Farewell to Arms. New York Press. 1997, page 88.

Shvesariyada urush yo'q edi, ammo ularning orzu qilgan baxtlari ming afsuslar bo'lsinki, fojea bilan yakun topadi.

Asarda urushni muallif ma'lum bir sinfning, guruhning vakillari foydasiga xizmat qiluvchi va ularning insoniyatga qarshi ochgan jangi sifatida bayon etadi. "Alvido, qurol!" asarining muhim va boshqa asarlardan farqli tomon mana shunda ifodalanadi.

XX asr 30-yillarida Olmoniyada hokimiyatni egallagan fashistlarning g'oyasi ham ulug'millatchilik va saltanatparastlik asosiga qurilgan edi. Ularning irqchilik nazariyasi insoniyat boshiga ne-ne qirg'in-barotlarni keltirmadi, deysiz. Fashistlar 1939 yilda Ikkinchi jahon urushini boshlab yubordilar. 1941 yil 22 iyunda esa sobiq Sovet Ittifoqiga hujum qildilar.

Ushbu urush bir xalq va bir mamlakatning boshiga tushgan ofat bo'lmay, umumjahon hayoti va kelajagini barbod etuvchi dahshatli hodisa edi.

Ikkinchi jahon urushi va uning ayanchli oqibatlarini tasvirlashga b'ag'ishlangan asarlardan biri bu - O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridir. Bu asar bugun o'zbek adabiyotining nodir namunalaridan biri bo'lib qolmoqda.

"Ikki eshik orasi" - yirik ijtimoiy, ma'naviy axloqiy roman. Asar uzoq davrlik voqealarni, ko'plab kishilar taqdiri, hayot yo'li, xilma-xil ijtimoiy muammolarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu roman 1930-yillardagi ocharchilikdan tortib, 1966 yil Toshkent zilzilasi gacha bo'lgan katta davrni qamrab oladi. Asar qahramonlari Do'mbiravot, No'g'ayqo'rg'on va boshqa joylarda yashovchi oddiy o'zbeklar bo'lib, ular urush arafasi, urush va undan keyingi og'ir yillarni boshdan kechirgan kishilardir. Asar qahramoni Muzaffar Qo'qonga onasining dafn marosimiga ketish jarayonida o'zining butun umrini esga oladi. Roman boshida muallif shunday deb yozadi: "Bu kitobdagi ko'p odamlarni o'zim ko'rganman. Ko'plari bilan gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining... ruhi bilan... Ba'zilari nimani gapirgan bo'lsa, shuni qog'ozga tushirdim. Ba'zilari nima gapirganini emas, nima o'ylaganini

yozishga majbur bo'ldim(Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg'on gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini o'ylaydi)".¹

Roman kompozitsiyasi ham o'ziga xos. U yetti qismdan iborat, bu qismlar qirq yetti bobdan tashkilotgan. Bu boblar esa qahramonlarning tilidan hikoya qilingan. Romandagi voqealarni hikoya qilishda to'qqizta personaj ishtirok etgan. Bunday tasvir usuli anchayin qiyin, voqealar tarqalib ketishi, ular orasida uzilish yuz berishi hech gap emas. Lekin muallif asarning oxirigacha "kalavaning uchini qo'ldan chiqarmaydi". Natijada romanda muayyan ichki yaxlitlik paydo bo'ladi. Bunday kompozitsion qurilishning afzalligi shundaki, har qaysi bob biror personajning ichki monologi tarzida berilgani uchun kitobxon ularning ichki dunyosini, ruhiyatini to'laroq ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Romanning markazida fashizmga qarshi olib borilgan urush davri, urush yillaridagi o'zbek qishlog'i hayoti, urush va inson, urushning kishilar taqdiriga ko'rsatgan chuqur ta'siri, ular qismatida, zurriyotida, dilida qoldirgan jarohatlari muammosi turadi. Yozuvchi ikkinchi jahon urushi kishilarimiz uchun zo'r sinov bo'lgani, bu sinov paytida o'zbek kishisiga xos bo'lgan noyob fazilatlar favqulodda bir kuch bilan yuzaga chiqqani, kishilarimizdagi otashin vatanparvarlik, cheksiz muruvvat, sadoqat tuyg'ularini ilhom va ehtiros bilan qalamga oladi.

Muallif voqealar tasvirida ularning tabiiy oqimini saqlashga intiladi. Bu voqealar zahirida salmoqli umumlashmalar, odamlar hayotining muhim tomonlarini ifodalovchi fikrlar yotadi. Muallif, birinchi navbatda urushni qoralaydi, uning aksilinsoniy mohiyatini ochadi, uning jarohati ko'p yillar mobaynida odamlarga ozor yetkazishini ko'rsatadi. Shu bilan birga muallif oddiy odamlarning, ayniqsa, urush yillarida yorqin namoyon bo'lgan fazilatlarini, vatanparvarligini, bardoshini, matonatini ko'rsatadi. O'sha sinov kezzarida faqat o'z jonini, manfaatini o'ylab, munofiqlik, xiyonat ko'chasiga kirgan ayrim kimsalar qilmishini qahr-g'azab bilan qoralaydi, ma'naviy inqirozini, fojiasini

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T: "Meriyus" 2011, 7-bet.

ochadi. Qahramonlar qismati vositasida yozuvchi yashashning ma'nosi, insonning insonlik sha'ni, burchi, mas'uliyati, e'tiqodi masalalarini ko'taradi, kitobxonni ular haqida o'ylashga, bahsga chorlaydi.¹

Qanday yashash va yashamaslik kerak, degan savol asarning yetakchi falsafasi darajasiga ko'tariladi. Bu o'git falsafa personajlardan biri – ko'pni ko'rgan Orif oqsoqol tomonidan berilgan ikki eshik orasi to'g'risidagi xalqona hikmatda o'z yakunini topgan. U deydi: *“Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib bu eshikdan chiqib ketayotganda qo'lidan kelgancha savob ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g'isht qo'yib ketadi. Yana bir xillari bor: o'sha imoratdan aqalli bitta g'isht o'g'irlab ketgisi keladi. O'g'irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshik oldiga borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi...”*² Muallif shular bilangina cheklanmaydi, bosqinchilik urushining insoniylikka, insoniyatga zid mohiyati, fashizm harbiy jinoyatining mudhish oqibatlari haqida cheksiz alam bilan yozadi. Binobarin, bu roman boshdan-oyoq urushning achchiq saboqlari orqali odamlarni hushyorlikka chaqiruvchi, umuman, urushga qarshi qaratilgan asardir. Romannning muhim ijtimoiy, umuminsoniy, zamonaviy qimmati ham ana shunda.

Adabiyotning bosh mavzusi inson bo'lgani uchun insonning xilma-xil holat, harakat, intilishlari badiiy asarning materiali bo'ladi. Adabiyotning bosh maqsadi inson, so'z san'atining asosiy mohiyati insonshunoslik ekan, badiiy asarda gavdalandirilgan voqea-hodisalar hayotda ro'y bergan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarning shunchaki bayoni emas, balki ularning muayyan nuqtai nazardan qayta ishlangan shaklidir. Hayotda voqealar bir joyda to'xtab qolmaydi. Ular qandaydir ko'rinishda davom etaveradi. Badiiy asardagi voqealar esa unday emas. Ular qandaydir tarzda boshlanadi va nihoyasiga yetadi.

Badiiy asar hayot voqeligining obrazlar vositasidagi ifodasidir. Badiiy asarda hayotning muayyan qirrasi ma'lum bir yaxlitlik kasb etib, akslanadi. Uning bu manzarasida biror bir voqelik, undagi odamlar fe'l - atvori, dunyoqarashi,

¹ “El sevgan adib” (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) T.: “Mumtoz so'z” 2011, 194-bet.

² Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 465-bet.

intilishi, turmush tarzi, kiyinishi, bir-biri bilan muomala-munosabati kabilar namoyon bo'ladi. Shuning uchun har bir barkamol badiiy asar o'z davrining ma'lum darajadagi oynasi hisoblanadi.

Shakl va mazmun, mavzu va g'oya, obraz va xarakter, syujet va kompozitsiya, badiiy til va uslub, tur va janrlar kabi vositalar, asarning mukammalligini, badiyiligi ta'minlashga xizmat qiladilar. Ular har bir asarda betakror tarzda uyg'unlashadilar va jonli bir "vujud"ni – badiiyatning aniq bir farzandini dunyoga keltiradilar.¹

Badiiy adabiyotning mavzui va maqsadi orasida uzviy bog'liqlik mavjudligi sababli yozuvchi o'z bilimi nuqtai nazaridan aks ettirgan narsa-hodisalar, his-tuyg'ular, o'y-fikrlar adabiyotning mazmuniga ham kiradi. Badiiy asar mazmuni obyektiv va subyektiv ibtidoning aks ettirilgan va ifodalangan tomonlari birligidan iboratdir. Agar asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni, badiiy reallikni obyektiv ibtido desak, ijodkorning tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga munosabati subyektiv ibtidodir. Badiiy mazmun shu ikki ibtidoning qo'shilishi asosida yuzaga chiqadi. Asarda aks ettirilgan hayotiy mavzu, ifodalangan g'oya va yozuvchining ularga munosabati uning mazmunini hosil etadi.

Yozuvchilar badiiy asarda muayyan hayotiy muammolarni ko'tarish bilangina cheklanmaydilar, balki ularning hal qilinishi yo'llarini ham ko'rsatadilar. Buning uchun ular tasvirlanayotgan narsa-hodisalarni o'zlari tasdiqlayotgan ideallar bilan qiyoslaydilar. Qiyoslash natijasida muayyan bir fikrni ilgari suradilar. Shunga ko'ra adabiy asarda har doim yozuvchining muhim fikri, g'oyasi, niyati bo'ladi.

Badiiy asarda yozuvchi ifodalagan asosiy fikr, tasvir predmetiga bergan bahosi "asarning g'oyasi" deb ataladi. Badiiy asarda g'oya tasvir etilgan kishilarning psixologiyasi, taqdiri, voqealarning va narsalarning mohiyati ichiga singib ketadi. Shunchalik singib ketadiki, biz u g'oyaga muallif tomonidan ishora qilinmagan holda ham o'zimiz o'sha muallif chiqargan xulosaga kelamiz. Badiiy

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004, 82-bet.

asarda g'oya – san'at asarining mazmuniga asos bo'lgan umumlashtiruvchi, emotsional obrazli fikrdir.¹

Adabiy asar g'oyasi uning butun boy mazmunidan kelib chiqadi. Chinakam badiiy asarlarda har bir voqea, har bir shaxs va hatto eng kichik tafsilot ham g'oyaning ifodalanishiga xizmat qiladi. Har bir obraz odatda yozuvchi g'oyaviy maqsadining muayyan tomonini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Shunga binoan asar g'oyasini to'g'ri tushunmoq uchun unda aks ettirilgan hamma narsani chuqur idrok qilish zarur bo'ladi.

Badiiy asardagi g'oya turmush hodisalari ustidan chiqarilgan oddiy mantiqiy xulosa emas, balki hayotni bevosita mushohada qilish, sinchiklab tadqiq etish va obrazli, emotsional ifodalash yakunidir. Bu yakun badiiy asar organizmining har bir hujayrasiga singib ketgan bo'ladi. Shu sababli badiiy asardagi g'oyani faqat shu asarning butun obrazlari mazmuni orqaligina anglash mumkin.

Yuqorida qayd etilgan qoidalardan kelin chiqqan holda “Ikki eshik orasi” asarida quyidagi g'oyalar ilgari surilganini bilib oldik:

Insonparvarlik g'oyasi. Insoniyatni ezgulik sari chorlaydigan bu g'oya asarda ko'pgina ijobiy obrazlar orqali yoritilgan. Masalan, Orif oqsoqol, Qora amma, Husan Duma, Komil tabib, Robiya, Shomurod kabilar bu g'oyaning asarda shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Robiyaning otasini “Xalq dushmani” sifatida olib ketishlari oqibatida Robiya qarovsiz qoladi. Husan duma va uning oiladi Robiyani o'z qaramog'lariga olib, unga ta'lim-tarbiya berishadi. “*Otang hozir keladi, qizim. Endi sen mening qizim bo'lding. Men – oyingman. Husan buvang – buvang.*”² Yoki bo'lmasa, Bashoratning onasi qochib ketgan go'dakka ko'krak tutishi, Muzaffarga o'z o'g'li kabi mehribonlik qilishi ham buning yaqqol isbotidir: “*Bashorat Muzaffarni bag'riga bosib erkakcha shaxdam qadamlar bilan uy tomon ketdi. U ayvonga chiqib borarkan, Muzaffarni o'pdi. – Voy, qorningni qorachig'idan aylanay! Voy, o'zim o'rgilay polvon boladan.*”³

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. T.: Sharq. 2002. 128-bet.

² Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 46-bet.

³ O'sha manba 523-bet.

Vatanparvarlik g'oyasi. Bu g'oya asosan vatani uchun jon fido qilishdan toymaydigan Orif oqsoqol, Husan Duma kabi obrazlar asosida o'z ifodasini topgan. Orif oqsoqol mehnatkash xalq orasidan chiqqan, butun hayotini shu xalq, Vatan manfaatlarini yo'lga tikkan, kechayu kunduz shu mehnat ahli tashvishi bilan nafas oluvchi inson. Shunisi muhimki, Oqsoqol vaziyat taqozosi bilan mansabdan – raislikdan chetlatilganda ham bir daqiqa bo'lsin, el-yurtdan uzoqlashmaydi, mansabdan ketgani uchun aslo o'kinmaydi. Bu odam oilasidagi og'ir ko'rguliklar yuz berganda, boshiga tushgan musibatlar tufayli dil-dildan o'rtinagani holda, baribir qishloq manfaati, o'zgalar baxti oromini o'ylab yashaydi.

Sevgiga sadoqat g'oyasi. Bu g'oya asosan asardagi Robiya va Muzaffar kabi obrazlar timsolida yoritilgan. Birgina misol: Muzaffar oradan o'n yil o'tsa-da halok bo'lgan sevgilisi Munavvar yodi bilan tanho yashaydi, yoshi bir joyga borib qolgan bo'lsa-da uylanmaydi. *“Ukang bir emas ikkita bolali bo'ldi, o'g'lim, bo'chaga chiqolmaydigan bo'lib qoldim-ku! Kimni ko'rsam, Muzaffarni qachon uylantirasiz, deydi. Dadang ikkalamizni bog'lab bergan emas bolam...*

*Dadam bilan oyim gapiraveradi. Men esa Munavvarni eslayveraman. Hayrat bilan tikilib turgan ko'zlarini, katta-katta, qop-qora ko'zlarini..... Keyin nimaga institutdan ketganim, nega qurilishga kelganimni o'ylayman. Ular azbaroyi zilzila tufayli o'g'limiz o'qishni tashlab ketdi deb ishonishadi. Men bo'lsa... Zilzila nima bo'пти! O'qishni tashlash nima bo'пти! Munavvar bo'lmaganidan keyin.”*¹

Asarda berilgan sevgiga sadoqat g'oyasi bilan birgalikda unga nisbatan xiyonat g'oyasi ham o'rin olgan. Bu hodisa asarning asosiy qahramonlaridan biri Shomurodning xotini Ra'no orqali aks ettirilgan. U o'z jufti haloliga xiyonat qiladi. Umar zakunchining hiylasiga uchib, unga o'ynash bo'ladi. Muallif bu voqealardan muhim ma'naviy xulosalar chiqaradi – Umar zakunchi bag'ritoshligi, nopokligi uchun, Rano subutsizligi, o'ylamay ish qilishi, o'z baxtini ardoqlab avaylamagani uchun keyinchalik butunlay baxtsiz bo'lishadi. Ular odamlarning nazaridan qolib, iztiroblarga, ruhiy qiynoqlarga to'la hayot kechirishadi. *“Nahotki?*

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 9-bet.

Shunday ko'hli, shunday dono Ra'no kelinoyim nahotki ilon bo'lsa? Shomurod tog'amni urushga kuzatayotgan kuni oshxona devorining orqasida o'ksib-o'ksib yig'laganini o'zim eshitgandim-ku! Erining oyog'iga tiz cho'kib iltijo qilganida oppoq ko'ylagining etagi loy bo'lib ketganini o'zim ko'rgan edim-ku! Bugun xuddi o'sha ko'ylagini kiyib olib, Umar zakunchi bilan... Farishtaning ilonga aylanishi shunchalik oson ekan-da! Axir tog'am o'lgani yo'q-ku! Tog'am u yoqda qon kechib yursa-yu kelinoyim bo'yoqda..."¹ asar qahramoni Robiyaning bu jumalari muhabbat kabi pok tuyg'uning toptalishi, uning xiyonatga o'rin bo'shatib berayotganining yaqqol isbotidir.

Urushga nisbatan nafrat g'oyasi. Bu g'oya asarda deyarli barcha obrazlar misolida keltirilgan. Chunki asardagi barcha qahramonlarning taqdiri urush tufayli tub burilishga yuz tutadi. Muzaffar tuqqan onasi Ra'no urush to'zonlari ichra dovdirab, yo'ldan toyib hayot so'qmoqlariga kiradi; boqqan onasi Robiya ko'ngil bergan yigitidan judo bo'lib tutingan tog'aga xotin, Muzaffarga esa ona bo'lib qoladi. "Qora amma" o'g'lining sevgilisini o'z inisiga unashtirishga, ikki o'g'lidani judo bo'lgan Oqsoqol esa o'z kelinini boshqa bironing nikohiga o'tkazishga majbur bo'ladi. Ayniqsa, Oqsoqolning olomon oldida kelinini ko'ngil qo'ygan nogiron yigitga nikohlab berish lavhasi, o'sha murakkab lahzalardagi Oqsoqolning g'oyat tig'iz ruhiy holati urush keltirib chiqargan oqibatlarga nisbatan nafrat hissini kitobxonda uyg'otadi. *"Xaloyiq! Zo'rani kelinimmas, qizim degandim. Afsus xudo uni boladan siqdi. Bolam tirik bo'lganda Zo'ra qo'chqordek o'g'il tug'ib bersa ajabmasdi. Urush bo'lmaganida balki shu bugun nevara to'yi qilarmidim... Nima qilay, peshonamga sig'magan ekan. Zo'rayam o'zimning farzandim. Yo'liga to'g'anoq bo'lsam, gunohga botaman."*²

Amerika adabiyotining birinchi jahon urushiga bag'ishlangan nodir naunalaridan hisoblangan "Alvido, qurol!" asarida ham bir qancha badiiy g'oyalar o'rin olgan bo'lib, asar mazmunini urush, uning insonlar taqdiriga ta'siri,

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T: "Meriyus" 2011. 318-bet.

² O'sah manba, 307-bet.

urush voqealari tashkil etadi. Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” asarida quyidagi gʻoyalar joy olgan:

Urushning ayanchli oqibati va inson ruhiyatining tanazzulga yuz tutishi gʻoyasi. Buni asarning bosh qahramoni Genri Genrining jumllarida koʻrishimiz mumkin : *“If people bring so much courage to this world the world has to kill them to break them, so of course it kills them. The world breaks every one and afterward many are strong at the broken places. But those that will not break it kills. It kills the very good and the very gentle and the very brave impartially. If you are none of these you can be sure it will kill you too but there will be no special hurry.”*¹ Genri oʻz qrashlarida insonlar kelajak nazoratida emas, balki ular dunyoning urush kabi vayronkor kuchlariga qaram degan fikrlarni koʻrishimiz mumkin. Genri garchi urush insonlarni jismoniy jihatdan oʻldirishga qurbi yetmasa-da, ulardagi eʼtiqod va ishonchni yoʻqotish orqali ularni ruhiy olamini yakson qilishiga ishonadi.

Urushni qoralash gʻoyasi. Bu gʻoya asardagi deyarli barcha obrazlar orqali berilgan. Ayniqsa Genrining Passini bilan boʻlgan suhbatiga nazar tashlasak buning aksini koʻrishimiz mumkin. *“I believe we should get the war over,” I said. “It would not finish it if one side stopped fighting. It would only be worse if we stopped fighting.” “It could not be worse,” Passini said respectfully. “There is nothing worse than war.” “Defeat is worse.” “I do not believe it,” Passini said still respectfully. “What is defeat? You go home.” “They come after you. They take your home. They take your sisters.” “I don’t believe it,” Passini said. “They can’t do that to everybody. Let everybody defend his home. Let them keep their sisters in the house.”*

“They hang you. They come and make you be a soldier again. Not in the auto-ambulance, in the infantry.”

“They can’t hang everyone.”

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 113.

"An outside nation can't make you be a soldier," Manera said. "At the first battle you all run."

"Like the Tchecos."

"I think you do not know anything about being conquered and so you think it is not bad."

"Tenente," Passini said. "We understand you let us talk. Listen. There is nothing as bad as war. We in the auto-ambulance cannot even realize at all how bad it is. When people realize how bad it is they cannot do anything to stop it because they go crazy. There are some people who never realize. There are people who are afraid of their officers. It is with them the war is made."¹

Insonparvarlik va do'stlikning qadr qiymati g'oyasi. Garchi begona bo'lishiga qaramasdan bar xizmatchisi Genriga o'zining beminnat do'stona xizmatini taklif qiladi: va u urush vaqtida yaralanib yotganda yordam bergan kasalxona hammoli ham qilgan xizmatlari uchun hech qancha pul olmay, o'zining insoniy ko'magini darig' tutmaydi.

"It is hard now to leave the country but in no way impossible."

"I have no wish to leave."

"You can stay here as long as you want. You will see what sort of man I am."

"I have to go this morning but I will remember the address to return."

He shook his head. *"You won't come back if you talk like that. I thought you were in real trouble."*

"I am in no trouble. But I value the address of a friend."

I put a ten-lira note on the bar to pay for the coffee.

"Have a grappa with me," I said.

"It is not necessary."

"Have one."

He poured the two glasses.

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 99

"Remember," he said. "Come here. Do not let other people take you in. Here you are all right."

"I am sure."

"You are sure?"

"Yes."

He was serious. "Then let me tell you one thing. Do not go about with that coat."

"Why?"

*"On the sleeves it shows very plainly where the stars have been cut away. The cloth is a different color." When I went out he said, "Don't forget that I am your friend."*¹

Urush vaqtida yaralanib yotganda yordam bergan kasalxona hammoli ham qilgan xizmatlari uchun hech qancha pul olmay, o'zining insoniy ko'magini darig' tutmaydi.

"Good," I said. "I wish you to do something for me. Do not tell any one you have seen me. It is very important."

"I won't tell any one," the porter said. I gave him a ten-lira note. He pushed it away.

*"I promise you I will tell no one," he said. "I don't want any money."*²

Muhabbat g'oyasi. Asarda muhabbat g'oyalari ikki xil qarashda aks ettirilgan. Biri, bu tuyg'uning insoniyat uchun qanchalik muhimligi bo'lsa, ikkinchisi muhabbatning yolg'izlik bilan yonma-yon yurishi o'z ifodasini topgan. Sevgining inson uchun bebaho tuyg'u ekanligi asar boshida Genrining kashish bilan suhbatida namoyon bo'ladi. Kashish agar Genri sevmasa baxtli bo'la olamasligi, haqida aytganda Genri bu fikrga umuman qo'shilmaydi. Keyinchalik esa, Genrining bu fikri tamomila o'zgaradi. Genri Ketringa bo'lgan sevgisi tufayli hayotdagi barcha qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi, bunga erishadi ham. Uning uchun bu dunyodagi eng qimmatli narsa uning muhabbatidir.

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 64.

² The same source, page 71.

“What do you value most?”

“Some one I love.”

“With me it is the same. That is not wisdom. Do you value life?”

“Yes.”¹

Yolg'izlikning muhabbat bilan yonma-yon yurishi Genrining so'zlarida yoritilgan.

“We could feel alone when we were together, alone against the others. It has only happened to me like that once. I have been alone while I was with many girls and that is the way that you can be most lonely. But we were never lonely and never afraid when we were together. I know that the night is not the same as the day: that all things are different, that the things of the night cannot be explained in the day, because they do not then exist, and the night can be a dreadful time for lonely people once their loneliness has started”²

“Alvido, qurol!” asari “Yo'qotilgan avlod” adabiy oqimining mahsuli bo'lgani sabab, ko'pincha asar qahramonlarining umdsizlikka berilganini, ularni tushkunlik girdobida qolganiga asar davomida duch kelamiz: *“That was what you did. You died. You did not know what it was about. You never had time to learn. They threw you in and told you the rules and the first time they caught you off base they killed you. Or they killed you gratuitously like Aymo. Or gave you the syphilis like Rinaldi. But they killed you in the end. You could count on that. Stay around and they would kill you.”³*

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va amerika adabiyotining nodir namunalaridan hisoblangan O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” va Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” asarlarining asosiy mazmuni urush voqealari va uning insonlar taqdiriga ta'siri bo'lib hisoblanadi. Ulardagi g'oyalar uning mazmunidan anglashilgan holda yuzaga chiqqan. Har ikkala asarda ham urushni qoralash, muhabbat va unga sadoqat g'oyalari aks ettirilgan.

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 28.

² The same source, page 64.

³ The same source, page 138.

2. Urush davri jamiyatida ayol o'rnini (ikki asar asosida)

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari XX asrning eng katta fojiasi bo'ldi. Bu davr mobaynida insoniyat boshiga qanchadan-qancha kulfatlar yog'ildi, minglab ayollar beva va bolalar yetim bo'lib qoldilar. Ota-onalar farzandlari dog'ida qayg'u-alam bilan bu dunyodan ko'z yumdilar. Ularning urush oqibatida taqdiridagi tub burilishlar adabiyot namoyandalarining asarlarida o'z aksini topdi. Ernest Hemingueyning "Alvido, qurol!" asari va O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlarida jahon urushlari qoldirgan achchiq alamlar mualliflar tomonidan mohirona tarzda tasvirlangan.

Jahon urushlari davrida ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlandi. Ular jamiyatning, sanoatning deyarli barcha sohalarida o'z jonbozliklarini namoyon qilayotgan edilar. Chunki, mehnatga layoqatli mard yigitlar urush janggohlarida g'alaba uchun jon olib, jon berayotgan edilar. Mehnatga layoqatli ayollar esa endi mard yigitlarning o'rnini bosishga majbur ham edilar. Hatto, jang maydonlarida o'z mardonavorligini ko'rsatgan ayollar ham yo'q emasdi. Ularning jasorati yuqorida nomi keltirilgan asarlarda o'z aksini topgan. "Alvido, qurol!" va "Ikki eshik orasi"dagi ayol qahramonlar jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladilar. Asarlardagi barcha ayol obrazlari o'zlarining qaysidir jihatlari bilan bir-birini takrorlamaydi. Ular urush vaqtida o'zlarining fidokorona xizmatlari bilan, front orqasida turib urushda g'alabaga erishishda jonbozlik ko'rsatadilar.

Ernest Hemingueyning "Alvido,qurol!" asarini "Romeo va Juletta" kabi shoh asarlarga qiyoslab, zamonning qiyinchiliklariga qarshi qo'yilgan klassik asarlari sirasiga kiritish mumkin. Hemingueyning shaxsiy hayot yo'li va asarlaridan uning dunyoga nisbatan dushmanlarcha kayfiyatda bo'lishi yaqqol ko'zga tashlanadi. U o'z asarlarida ko'pincha dunyo tashvishlari yechimini ajralib qolgan munosabatlar va hissiyotlarda ko'radi.¹

¹ Assadnasab Sara. Hemingway's depiction of women in A Farewell to Arms. Lulea University of Technology, 2005, page 5.

Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” asari kompozitsiyani tasvir oqimini poeziyaga xos boʻlgan salobatli bir ohang birlashtirib turadi. Romanda syujet tizimi hayotning egri-bugri koʻchalaridan oʻtmaydi. Toʻgʻri va ixcham. Dramatik intrigalar koʻzga tashlanmaydi.

Asarda ayol qahramonlar kam, asarning asosiy diqqat markazida Ketrin Barkli ayol obrazida gavdalanadi. Ketrin xuddi yunon maʼbudasi Afinaga oʻxshaydi. U chiroyli, aqlli, nazokatli ingliz qizi boʻlib, unga Genrining doʻsti Rinaldi uylanmoqchi edi. Asar davomida u ijobiy obraz sifatida kitobxonlar xotirasida saqlanadi. U turgʻun obraz. Ketrin zamonaviy ayol boʻlib, barcha anʼanaviy qadriyatalarni rad etadi. Ketrin hech qanday dinga eʼtiqod qilmaydi, Genri va Ketrinning bir-biriga boʻlgan muhabbati ular uchun din sifatida xizmat qiladi.¹

Ketrin obraziga asar davomida uning toʻliq ismi orqali yoki Miss Barkli deya murojaat qilinadi. Ketringa asar davomida rasmiy murojaat qilish kitobxonda uning Genridan yoshi kattaligi va Genri hamda kitobxonlarning hurmatiga munosib ekanligi toʻgʻrisida taassurot paydo boʻladi. Asar qahramoniga ism ham muallif tomonidan uning xulq atvoriga mos holda tanlangan. Ketrin nomi grekchadan kelib chiqqan boʻlib, sof, begʻubor degan maʼnolarni bildiradi. Asar voqealari jarayonida u pokiza, begʻubor qalb egasi sifatida kitobxon koʻz oʻngida gavdalanadi. Uning bu begʻuborligini, pokligini Genri bilan ilk uchrashgan kunda marhum qalligʻiga oʻzini bagʻishlamaganidan afsus chekayotganidan ham bilib olish mumkin: *“I wanted to do something for him. You see I didn’t care about the other thing and he could have had it all. He could have had anything he wanted if I would have known. I would have married him or anything. I know all about it now. But then he wanted to go to war and I didn’t know.”*²

Ammo bu pokligining Genriga bagʻishlanishi natijasi uning bu yorugʻ dunyodan koʻz yumishiga sabab boʻlishi esa taqdirning achchiq hazili edi. Chunki marhum qalligʻi bilan hech qanday intim munosabatlar oʻrnatmagan Ketrin

¹ Donaldson, Scott. New essay of *A Farewell to Arms*. Cambridge University, 1990. page 27

² Hemingway E.A *Farewell to Arms*. Foreign languages Publishing house, 1963, page 34

Genriga bo'lgan muhabbati va urush dahshatlari natijasida bevaqt bu dunyoni tark etadi. Buni Genrining so'zlaridan ham anglash mumkin: *"Poor, poor dear Cat. And this was the price you paid for sleeping together. This was the end of the trap. This was what people got for loving each other."*¹

Ketrinning asar oxirida vafot etishi yozuvchi uchun Genrini nikohsiz xotin va farzandi bilan birgalikdagi dunyosini yozmasdan va tassavur qilmasdan asarni o'rab chirmashning eng qulay usuli edi.

Ketrinning Barkley familiyasiga e'tibor qaratsak u yosh askarlarga baqirib buyruq beradigan mashq qildirovchi serjantni eslatadi. Bu esa birinchi jahon urushini aks ettirgan asar syujetiga juda mos tushgan. Shuningdek, baqiroq ohangda buyruq berish va shunga o'xshah noxush holatlar urush vaqtida kasalxonada yagona tunggi hamshira bo'lib ishlagan Ketrin xarakteriga mos tushgan va Genri bilan o'rtalaridagi munosabatlarni tasvirlashda xizmat qilgan asosiy detallardan biri bo'lib qolgan. Garchi Ketrin Genrisiz bir kun ham yashay olmasligini takrolab Genrini ishqiy munosabatlarida yetakchi qilib ko'rsatgandek tuyulsada, asar oxiriga qadar Ketrinning o'zi ularning munosabatlarini boshqarib o'tirgani kitobxonga kundek ravshan.³

Yozuvchi har xil xarakterdagi odamlarni romanga olib kiradi. Ularning hayotga qarashlari orqali urushga munosabat bildiradi. Kitobxon shu odamlarning tasavvurlari orqali urushning mohiyatini teranroq anglaydi. Yozuvchining mahorati shundaki, roman qahramonlari huda-behuda, kerak-nokerak gaplarni gapiravermaydilar. Ularning gaplari shu oddiy odamlarning orasida bo'ladigan mayda-chuyda gaplardek tuyuladi. Bu qahramonlar urush haqida kitobxonning joniga tegadigan darajada ko'p gapiravermaydi. Yozuvchi shu ko'zga ilinmas, oddiy kundalik hayotda doimiy bo'lib turadigan suhbatlarga sana'tkorona sehrilik bilan ma'no yuklaydi.³

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 139.

² Donaldson, Scott. New essay of *A Farewell to Arms*. Cambridge University, 1990, page 26.

³ Assadnasab Sara. Hemingway's depiction of women in *A Farewell to Arms*. Lulea University of Technology, 2005, page 5.

Ketrin bilan Genri o'rtasidagi suhbat ana shunday yigit bilan qiz o'rtasida bo'lib o'tadigan ko'pgina gaplar, lekin yozuvchi shu bilan o'z sana'tkorligini ko'rsatadi. Ba'zan asarlarda sevishganlar uchrashuvi berilgan epizodlarni o'qiganda ularning birorta gapiga ishongimiz kelmaydi. Chunki ularning gaplari bo'ladi-yu, muhabbatga yo'g'rilgan qalblari bo'lmaydi.

Ketrin Italiyaliklarni xushlamaydi. Rinaldini rad etganligining asosiy sabablari shu. Yana Ketrin Genrini ko'rgandayoq uning ruhiy olamini sezgirlik bilan uqib olgan. To'g'rirog'i, Genri unga yoqqan. Genri unga alohida e'tibor bilan qaramaydi. Soldatlarga xos bo'lgan sovuq bir nuqtai nazar bilan qaraydi. Ketrindek oqila bir qiz buni sezmasligi mumkin emas edi.

Biroq Genrining boshqa ofitserlardan ajralib turadigan insoniy fazilatlarini mavjud ediki, qiz uni shu sababdan yoqtirib qoldi. Ayniqsa uning to'g'ri so'zligi qizga ma'qul buldi. Ketrin undan "sevganmisan?" deya so'rganida u "yo'q" deb javob beradi. Yozuvchi Ernest Heminguey ularning bu ilk uchrashuvidan muhim ma'no keltirib asarni kelgusi syujetining davomiga zamin tayyorlaydi va kitobxonni ular o'rtasidagi muhabbatning pokizaligiga ishontirib boradi. Yozuvchi shu bilan asarda qo'llanilgan har bir epizodni, detalni umum g'oyaga romanning asosiy leytmotiviga bo'ysundiradi.

Asardan muhabbat va urush, urush voqealarining bu beg'ubor juftlikning muhabbatiga zomin bo'lish mazmuni ham joy olgan. Muhabbat har bir inson hayotiga ma'no bag'ishlovchi kuchga ega tuyg'u, shu bilan birga u insondan tezgina tortib olinadigan hissiyotidir ham. Inson sevib qolsa, u o'z sevgilisi uchun barcha ishlarga tayyor bo'ladi. Muhabbat asarlarda boqiy yashaydi, shu bilan asar murakkabligiga erishiladi ham. Urush shafqatsiz va keraksiz hodisa, ammo uning qahriga sevgi bilan javob qaytarish mumkin.

Asarda muhabbat ayni qiyinchiliklar vaqti, urush davrida boshlanadi. Genri tez yordam haydovchisi, Ketrin esa ingliz hamshirasi. Ular uchrashib qoladi, ammo Genri shikastlanib, kasalxonaga yotmaguncha ularning o'rtasida ishqiy munosabatlar bo'y cho'zmaydi. Ular bir-birini sevib qolishadi, Ketrin homilador bo'ladi. Shundan so'ng Genri Ketrin oldidagi burch va mas'uliyatini his qila

boshlaydi. Genri qatnashishdan bosh tortgan urushda insonlar qirilib ketayotgan edilar. Ular Shveysariyaga qochishga qaror qiladilar va u yerda baxtli yashashni boshlaydilar. Ketringa bo'lgan muhabbati tufayli Genri hayotdan ma'no topadi. Ammo ularning bu shirin hayotlarining intihosi Ketrinning o'limi bilan yakunlanadi.

Ketrin asarning asosiy ayol obrazi sifatida romandan joy olgan bo'lib, urush voqealari, uning og'ir musibatlari aksini bu xarakter orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ketrin urush oqibatida o'zining ilk qallig'idan ayrildi, uning zalvorli qiyinchiliklaridan qochishga uringan bu juftlikning baxti chopmay oxir-oqibatda Ketrin bu uchun tovon to'lashga majbur bo'ldi. Ketrin ham zurriyodidan ayrildi, ham o'zi bu dahshatli urushning qurboni bo'ldi:

"Please go out of the room," the doctor said. "You cannot talk." Catherine winked at me, her face gray. "I'll be right outside," I said.

"Don't worry, darling," Catherine said. "I'm not a bit afraid. It's just a dirty trick."

"You dear, brave sweet."

I waited outside in the hall. I waited a long time. The nurse came to the door and came over to me. "I'm afraid Mrs. Henry is very ill," she said. "I'm afraid for her."

"Is she dead?"

"No, but she is unconscious."

It seems she had one hemorrhage after another. They couldn't stop it. I went into the room and stayed with Catherine until she died. She was unconscious all the time, and it did not take her very long to die.¹

Asardagi yana bir ayol obrazlardan birini yaratgan bu – Helen Fergussondir. Genri bilan Ketrinning yaqin kishilaridan bo'lgan dugonasi Fergusson o'rtasidagi suhbat Genrining Ketringa bo'lgan muhabbati xususida gap ketsa ham, aslida yozuvchining zohiran urushga qarshi qaratilgan tezislaridir. Biz qonli urushda Genri bilan Ketrin o'rtasida intim munosabatni o'ylaganimizda, inson har qanday

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 139

og'ir sharoitda ham muhabbat bilan tirik ekanligini his qilamiz. Ketrin bilan Genri o'rtasidagi intim munosabatlar, oila qurish orzusi yozuvchi tomonidan urushga qarshi qo'yilgan protestidir. Romandagi Genrining qiz bilan ilk bor uchrashuvi qizning birinchi muhabbati haqida fikrlari uni sevgan yigitning frontda halok bo'lishi, keying voqealar oqimi Ketrinning Genriga bog'lanib qolishi kartinalari hayotning beshavqat ayni chog'da go'zal jihatlarini yorqin aks ettirganini o'qigan kitobxonning urushga nafrati beqiyos darajada ortadi. Yozuvchining o'zi *"Urushda yomon odamlar yoq, balki yomon rahbarlar bor"*¹ deb qayd qilganidek, Heminguey asarga olib kirgan qahramonlarning birortasida salbiy belgilarni kurmaymiz. Haqiqatan ham bu odamlar ajoyib qalbga ega kishilar. Genri bilan Fergusson o'rtasidagi bir oz salbiylik xalq boshiga ne-ne kulfatlarni keltirgan urush, muhit sharoitidir.

Dunyoda bu kabi urush voqealaridan aziyat chekkan insonlar son-sanoqsiz. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari hech qaysi bir o'sha davrning kishisini chetlab o'tmadi. Kimdir o'z farzandidan, kimdir otasidan, yana kimdir suyuqli yoridan judo bo'ldi. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridan ham urush voqealari oqibatida taqdiri tub burilishga yuz tutgan taqdirilar tasviri keng joy olgan. Ayniqsa, frontga ketgan erkaklarning o'rniga er-yigit bo'lib, belini bog'lab ishga kirishgan o'zbek xalqining mehnatkash, jonkuyar ayollari bu urushning og'ir, zalvorli kunlarini o'zlarining mittigina jussalarida ko'tarib yurishga to'g'ri kelgani asarda muallif tomonidan mahorat bilan ko'rsatilgan.

Asarda ayollar obraziga O'tkir Hoshimov o'ta hushyorlik bilan yondashgan. Adib ularning xarakteridagi har bir detalni sinchkovlik bilan tasvirlaganki, kitobxon bu ayol qahramonlar tasvirida bir-biriga o'xshashlik jihatlarini topa olmaydi. O'tkir Hoshimov ayol qahramonlarning ruhiy dramasini ochish bilan barobar ularning qalb boyligi va saxovatini ham ko'rsatadi. Bir talay personajlar

¹ Heminguey Ernest. Muallif so'z boshisi. Kuba, 1948 3-bet.

tabiati va xatti-harakatidagi mehnatkash xalqimiz xarakteriga xos fazilatlar, o'zbek xalqi turmush tarzi yorqin ifodasini topgan.¹

Asarda ayollar asosiy ishchi kuchini tashkil qilganlar. Asardagi Robiya, Zuhra kelin, Fotima kelin, Bashorat, Parcha kabi obrazlar kolxozning zabardast ishchilaridan bo'lib, ular front uchun barcha turdagi ekin mahsulotlarini yetishtirishda astoydil harakat qilib, traktor haydab, kunni kun, tunni tun demay g'laba uchun orqa frontdan turib ko'mak qilganlar.

Urushda bedarak ketgan yolg'iz farzandi dog'ida o'rtansa-da, o'z dardini ichiga yutib, nuqul o'zgalar g'ami, oromi, baxtini o'ylaydigan "Qora amma", o'sha og'ir yillarda traktor minib, yoshlarni o'z yoniga olib, el-yurt mushkulotini oson qilgan, urush qurboni bo'lgan eri salomatligi, ko'ngli deb o'z oromidan voz kechgan Bashoratxon, ipakday mayin-muloyim, o'zgalariga mehribon, qo'li gul chevar, dono ayol qo'qonlik Oysara opa – bu xil fidoyi onajonlar romanga zeb berib turadi. Asarda asosiy qahramonlardan birini gavdalantirgan "Qora amma" muloyim, mehnatkash, mehribon o'zbek ayoli sifatida asardan joy olgan. Muallif bu obrazni tascirlash uchun kerakli detallarni ishlatgan. "Qora amma" urush tufayli og'ir musibatlarni boshidan kechiradi. U o'z o'g'li Kimsandan judo bo'ladi, garchi Kimsandan qoraxat kelmagan bo'lsa-da, u urushga ketganiga yigirma to'rt yil bo'lgan edi, shundan beri undan na xat, na xabar bor edi. Uning noma'lum askar haykali oldidagi suhbat bunga isbot bo'ladi:

– *Oyi, mani tanidingiz-a?*

– *Tanidim, o'g'lim. O'lganmiding? Men bo'lsam...*

– *Yig'lamang oyi, men tirikman. Bugun o'zingiz ko'rdingiz-ku!*

– *Dadang yo'lingga ko'z tika-tika olamdan o'tdi.*

– *Siz yashashingiz kerak, oyi. Men uchun...*

– *Yigirma to'rt yil kutdim. Kimsan... Bu yog'iga kuchim yetarmikin?*

– *Siz yashashingiz kerak.*

– *Xo'p jon bolam, xo'p. Sen shunaqa desang...*¹

¹ "El sevgan adib" (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) T.: "Mumtoz so'z" 2011, 195-bet.

“Qora amma” o‘z o‘g‘lining sevgilisi Robiyani ilojsizlikdan Shomurodga to‘y qilib uzatadi. Chunki endi Kimsanning kelishiga umid yo‘q edi. “Qora amma”ning o‘zi avval o‘g‘liga sovchi bo‘lgan bo‘lsa, endi ukasi Shomurod uchun Robiyaning qo‘lini so‘raydi: “ – Robiya, – dedim yig‘lagudek iljayib, – sovchi keldi! U menga qaramay kulimsiradi. – Muborak bo‘lsin! Damim ichimga tushib ketdi. – Sovchi kim deb so‘ramaysanam qizim, – dedim ichimdan toshib kelayotgan yig‘ini arang bosib. Robiya ensasi qotib kuldi. – Kavushini ayamasa kelaversin... sizga nima? – O‘sha sovchi – menman! Bu gap qandoq og‘zimdanda chiqib ketganini bilmayman, Robiyaning qo‘lidagi qiyiqcha sirg‘alib yerga tushdi. Rangi o‘chib, yuzimga hayratlanib qaradi. – A?! – Shomurodga...”²

Asardagi yana bir markaziy ayol qahramonlardan biri bu – Robiya. U shuningdek, urush davri jamiyatining beqarorliklari oqibatida o‘z dadasini ham yo‘qotadi. Robiya ko‘p yillar kutgan sevgilisi Kimsan urushdan qaytmagach, Qora amma iltijosi bilan Shomurodga tegishga majbur bo‘ladi. Shu tufayli o‘zini kechirolmaydi. To‘ydan keyin Muzaffarni xursand qilish uchun sandiqdan bolaga atalgan kiyim-kechaklarni olayotib, bir vaqtlar o‘z qo‘li bilan Kimsanga atab tikkan qiyiqchalarni topib oladi:

“–Nochorman! – dedi o‘krab. Sho‘rim qursin! – Qaddini rostlab, qiyiqchani bag‘riga bosgancha, yana muk tushdi.

–Kechiring meni! – dedi qiyiqchani yuziga bosib. U qiyiqchani labiga bosgancha ayanchli qichqirdi: - Boshimni qayoqqa olib ketay? – ikki qo‘lini qiyiqcha aralash baland ko‘tarib sochi changalladi. Qo‘rqib ketdim.”³

Robiyaning iztiroblari, faryod solishi, butun vujudi bilan to‘lg‘anishi qalbida bo‘layotgan to‘fonni anglatadi. Qizig‘i shunda-ki, kichik Muzaffar hech narsaga tushunmaydi va Robi opasini xafa qilib qo‘ygani uchun o‘zini aybdor sanaydi. Tushuntirish qiyin bo‘lgan holat! Robiyaning Kimsanga qilgan iltijolari kitobxonni larzaga soladi. Kitobxon o‘zi bilmagan holda Kimsanga ham, Robiyaga ham, kichkintoy Muzaffar fojeasiga ham sherik bo‘ladi.

¹ Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 471-bet.

² O‘sha manba, 39-bet.

³ O‘sha manba, 114-bet.

Romandagi asosiy ayol qahramonlardan yana biri – Shomurodning jufti haloli Ra'no eriga xiyonat qiladi. Ra'no turmush o'rtog'i urushga ketgan vaqtida, Umar zakunchining hiylasiga uchib, unga o'ynash bo'ladi. U urush to'zonlari ichida dovdirab, yo'ldan toyib hayot so'moqlariga kiradi. Ra'noning ikkilanish holatlari, so'ng aldanib chekkan alam va pushaymonlari, adadsiz qalb qiynoqlari – bunga o'xshash lavhalar tasviri kitobxonni larzaga soladi. U emizikli chaqalog'ini qoldirib, Zakunchi bilan Qo'qonga qochib ketadi. Unga bolang o'lgan deyishgan. Ra'no tasodifan o'g'li tirikligini eshitib, Toshkentga keladi va o'g'lining maktabiga boradi: “ – *Sen Muzaffarsan-a? – dedi tovush titrab. – O'rtoqlaring aytishdi. Darsga kirmabsan?*

- *Ha! – dedim Abduvalidan ko'z uzmay. – Nimaydi?*

- *O'g'lim! – xotin ingrab yubordi, qo'lidagi sumkasi tushib ketdi.*

- *Muzaffar! Ketma-a... Tirik ekansan-ku!”¹*

Asarda urush tufayli ikki o'g'lidan ayrilgan Orif Oqsoqolning rafiqasi Xolposh xola obrazi ham muvaffaqiyatli epizodlardan biri. U mohir tikuvchi, mehribon qaynona, fahm-farosatli ayol sifatida gavdalantirilgan. U ham urushning achchiq alamlaridan benasiba qolgan emas. Uning ikki o'g'lidan ayrilishi, kichik kelini Zuhraning boshqa bir yigit bilan qochib ketmoqchi bo'lgani va shunda Oqsoqol uni o'sha yigitga nikohlab berganidagi dramatik holatlari muallif tomonidan ustalik bilan ko'rsatilgan:

“*Boyadan beri ayvon o'rtasida cho'zilib yotgan Xolposh xola yarq etib ko'zini ochdi.*

-*Dod! – dedi to'lg'anib – Zokir! Bolam! Qandoq chidayman. Iloyo arvohing ursin, jon bolam! – Amallab qaddini rosladi-da, ko'zi to'la yosh bilan Zuhra kelinga yuzlandi. – U dunyo-bu dunyo kosang oqarmasin, juvonmarg! Kun ko'rib, kuni ro'shnolik ko'rmagin, iymonsiz!”²*

Asardagi Munavvar obraziga ham ayol qahramon sifatida alohida e'tibor qaratilgan. U juda pok qalbli, beg'ubor, o'qimishli qiz. Garchi urush bo'lgan

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T: “Meriyus” 2011, 348-bet.

² O'sha manba, 308-bet.

paytda, u hali go`dak bo`lgan bo`lsa-da, urush voqealari uning taqdiriga ham o`z muhrini bosadi. U bilib-bilmay, o`zi emikdosh bo`lgan akasini, Muzaffarni, sevib qoladi. Onasi Bashorat ularning muhabbatiga qarshilik qilgandagi ruhiy kechinmalari yozuvchi tomonidan mahorat bilan aks ettirilgan: “ – *Oyi! – dedim shaxt bilan. Shu bir og`iz so`zda o`tinch ham, alam ham, nihoyat g`azab ham aralashib ketganiga o`zim hayron qoldim. – Oyi! Men uni yaxshi ko`raman, bidingizmi! Men usiz turolmayman! O`lib qolaman! Tushunsangiz-chi! – dedim yerni mushtlab.*”<sup>1</sup> Ularning muhabbatining yakuni esa Munavvar hayotining gullagan bog`ini xazonga aylantiradi. U o`z joniga qasd qiladi. Bu voqea asardagi urushga umuman aloqasi bo`lmagan, ammo uning oqibatida, muhabbati barbod bo`lgan, ayanchli taqdir egasiga nisbatan kitobxonda achinish hissi paydo bo`ladi.

II bob bo`yicha xulosa

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, har ikki asarda ham adabiyot nazariyasi kabi fanlarida g`oya va mazmun sifatida o`z tasdig`ini topgan tushunchalar urush voqealarini va urush davri jamiyatini tasvirlashda har ikkala muallif tomonidan mahorat bilan berilgan. Asarlardagi ayol obrazlar ham mualliflar tomonidan mahorat bilan tasvirlangan. Ularning jamiyatdagi o`rni esa har ikkala asarda ayricha berilgan. Masalan “Alvido, qurol!” asaridagi Ketrin Barkli jamiyatda o`z o`rniga ega ingliz hamshirasi sifatida berilgan bo`lsa, unga taqqoslagan holda Robiya oddiy o`zbek qizi, uning k`op vaqti dala ishlari bilan o`tgan. Har ikkala asardagi ayollar obrazi mualliflar tomonidan milliy mentalitetga yondashilgan holda tavsiflangan.

¹ Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. T: “Meriyus” 2011, 530-bet.

III BOB. “ALVIDO, QUROL!” VA “IKKI ESHIK ORASI” ASARLARIDA OBRAZLAR TALQINI

1. “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlaridagi obrazlar taqdiriga urush voqealarining ta’siri

Badiiy adabiyot hamma uchun qiziqarli va foydali bo'lgan juda ko'p muammolarni, dastavval ijtimoiy va axloqiy masalalarni qamrab oladi. Insoniyat psixologiyasi va intilishlarining mushtarakligi tufayli bir xalq vakili tomonidan shu xalq hayotiga yozilgan bo'lsa, o'z-o'zidan yer yuzining hamma joylaridagi kishilar uchun qiziqarli bo'lib qoladi.

Buyuk san'at asarlari haqiqiy xalqchildir. Chunki ularda davrning muhim ziddiyatlari aks etgan bo'lib, ularni bilib olish xalq uchun muhim qimmatga egadir. Mana shunday xalqchil asarlar sirasiga “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlarini ko'rsatishimiz mumkin. Ularda xalqning urush davridagi hayoti, qiyinchiliklari, orzu-intilishlari o'z aksini topgan. Har bir badiiy asarni o'qigandan keyin zehnimizda asarda tasvir etilgan kishilarning obrazlari qoladi. Yozuvchi har tarixiy davr va sharoitning mahsuloti bo'lgan insonni tekshiradi, uning ruhiy holatlariga kiradi, ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur beradi. Bu vazifani badiiy adabiyot obraz yaratish yo'li bilan bajaradi. Badiiy adabiyotda tasvir etilgan inson obrazi umumlashtiruvchi kuchga ega. Unda ma'lum davr va muhit kishisining eng muhim va xarakterli xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Yozuvchi o'z qarashlarini, orzu-istaklarini obrazlar vositasida qalbining “dardi”, his-hayajoni bilan o'quvchilar ommasiga yetkazsa, asosiy maqsad qilib o'quvchilar ruhiy olamiga, tuyg'ulariga ta'sir qilishni nazarda tutadi. Muallif badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Asalari minglab gullarga qo'nib, uning eng asl sharbatlaridan emib, bir yerga yig'ib bol to'plaganidek, yozuvchi ham muayyan obraz (do'kondor)ni yaratish uchun ko'plab do'kondorlarning qiyofasini belgilovchi xarakterli xususiyatlarini, odatlarini, so'zlash odoblarini, ma'naviyatini va hokazolarini o'rganadi va ularning eng

salarini umumlashtirib, bir obrazda jamlaydi. Shu sababdan birgina obraz mohiyatida yuzlab kishilarga xos xislat va belgilarni ko`rish, “tanish bo`lgan notanish” kishilarni uchratish mumkin bo`ladi.¹

Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” va O`tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlaridagi obrazlar talqinida mualliflarning urush jamiyatidagi insonlarning qarashlari, orzu-istaklari, urush oqibatida tub burilishlarga yuz tutgan taqdirlari ochib berilgan.

Heminguey asarlaridagi qahramonlarning, obrazlarning xususiyatlarni ochib berish uchun ma`lum bir darajada ta`sirdorlik nazorat qilinadi. Bu tilning ta`sirdorligining maqsadi, obrazlarning, xarakterlarning matonatini ko`rsatish, asar qahramonlari hayotining turli baland-pastliklarini, og`ir va fojeali kunlarni ham sabot bilan yengib o`tish xususiyatlarini ochib berishdir. Bu turdagi matonat, sabr-toqat, qiyinchiliklarni mardonavor yengib o`tish Heminguey yaratgan aksariyat asarlarning bosh mavzusidir.

Heminguey o`zining dastlabki faoliyatida jamiyatga ishonmay qo`ygan odamlarning taqdiri haqida so`z yuritdi. Uning ilk asarlarida jamiyatdan ajralib qolgan inson obrazi ilgari surilgan va urush hamda urushning fojeaviy oqibati ta`sirida insonlar bir – birlariga mehsiz, bir – birlaridan ko`ngillari sovib borayotganligi yorqin misollarda aks ettirilgan. Mana shunday asarlardan biri adibning “Alvido, qurol!” asaridir. Asar birinchi jahon urushi va uning dahshatlari haqida yoritilgan bo`lib, undagi obrazlar ham asar syujeti va kompozitsiyasiga mos holda berilgan.

Asardagi asosiy obraz bu Genridir. Asarda voqelik Genri nigohi orqali kuzatiladi. Uning tili bilan gapirtiriladi va tasvirlanadi. Xullas, biz qahramon Genri munosobati orqali hayot voqeligiga nazar tashlamaymiz. Shuningdek, barcha voqealar markazida Genri turadi. U asarning bosh qahramoni sifatida muallif tomonidan asarga kiritilgan. Genri Amerikaning leytenanti bo`lib, Italiya armiyasi frontida tez yordam mashinasi haydovchisi sifatida faoliyat olib boradi. Asar

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. T: Sharq. 2002. 29 bet

qisman avtobiografik xususiyatga ham ega bo'lib, unda muallifning I jahon urushida boshidan o'tkazgan voqealarning aksini ko'rishimiz mumkin. Urushning qahramonlar hayotiga ta'sirini kuzatishdan avval, uning muallif hayotiga ta'sirini o'rganmog'imiz zarur. Chunki muallifning o'zi urushda qatnashgan bo'lib, uning syujetini ham jang maydonlarida ko'rgan kechirganlaridan kelib chiqqan holda yaratgan. Uning uchun urush esda qolarli darajada dahshatli va qo'rqinchli. U tez yordam haydovchisi sifatida urush maydonlaridagi jarohatlangan askarlarni kasalxonaga, o'liklarini esa morgga tashishga majbur edi. Heminguey insonning shirin hayoti bir zumda undan tortib olinishi urush mobaynida guvohi bo'ldi, va urush qahramonona emas degan xulosaga keldi. Keyinchalik esa uning bomba portlashi natijasida jarohtalanishi uni dahshatga soladi. U Milanda davolanayotgan vaqtda amerikalik Agnes von Kurovskiy ismli hamshira bilan ishqiy munosabatda bo'ladi. Ammo ularning munosabatlari poyoniga yetmay tugaydi, chunki Heminguey AQSHga uzatiladi va Agnes ham uni o'zidan juda yosh bo'lganligi uchun rad etadi. O'n yil vaqt o'tgandan so'ng Heminguey "Alvido, qurol!" asarini yozib tugatadi, undagi voqealar rivoji esa muallifning hayotidagi voqealar aksining tasviri edi.¹

Genri voqealar rivojining markazida bo'lgan obraz bo'lib, u urush tufayli ko'plab qora kunlarni boshidan kechirdi. Nemis qo'shinlari Italiyani bombardimon qilishni boshlaganida Italiya armiyasi va Genri hamda boshqa tez yordam haydovchilari chekinishga majbur bo'ladi. Chekinayotgan vaqtda Genri va uning do'stlari ko'plab qiyinchiliklarga duchor bo'lishadi. Genrining sheriklari birin-ketin uni tark etishadi, u Tagliamento daryosini kechib o'tgandan so'ng, Italiya qo'shini ofitserlari o'z qo'shinlaridan qochib ketganliklari uchun otib tashlanayotganliklarining guvohi bo'ladi. U ham nemis josusi sifatida qo'lga olinishidan qo'rqib, Italiya armiyasidan qochadi. Barcha kulfatlar ana shundan keyin boshlanadi, u qochib Ketrinni amallab topadi va har doim yashirib yashashga majbur bo'ladi. Buning oqibati o'laroq Genri, asar so'ngida ham farzandidan, ham sevikli yori Ketrindan ayriladi: "*But after I had got them out and*

¹ Donaldson, Scott. *New essay of A Farewell to Arms*. Cambridge University, 1990, page19.

shut the door and turned off the light it wasn't any good. It was like saying good-bye to a statue. After a while I went out and left the hospital and walked back to the hotel in the rain."¹

Asardagi ko'pgina qahramonlar hayoti frontda ro'y bergan voqealar bilan bog'liq. Chunki asarning o'zi I jahon urushi front voqealarini tasvirlashga qaratilgan. Asarning asosiy qahramonlari sifatida Genri va Ketrin olingan. Qolgan obrazlar esa epizodik obrazlar sifatida namoyon bo'ladi.

Asardagi yana bir obrazlardan biri Rinaldi bo'lib, insoniy qalbga ega shaxs. Ketrin bilan Genrining topishishida u sababchi bo'ladi. Hatto Rinaldi Ketringa uylanmoqchi bo'lib o'zi qizning yoniga borib - kelib yuradi. Genriga u hatto shu qizga uylanishini ham aytadi. Do'stining o'ziga kelajakdagi qaylig'i bo'lg'usi Ketrinni topshirmoqchi bo'ladi. Oxir oqibat Ketrin Rinaldini emas, Genrini sevib qoladi. Yozuvchi oddiy detallar bilan Rinaldiga muhabbatning chinakam muhabbat emasligini ham ko'rsatadi. Chunki asarning bir o'rnida Rinaldi Genridan pul so'raydi Genri unga so'ragan pulini beradi. "Men qizning oldida puldor bo'lib ko'rinishni yaxshi ko'raman deydi". Rinaldining bu gaplari orqali muallif soddadil ofiserning muhabbatga bo'lgan munosobatini ko'rsatib, uning xarakterini ochib beradi. Rinaldi urushdan nafratlanadi, u urush vaqtida zahm kasalligiga chalinadi, uning bu kasallikdan vafot etganini Genrining so'zlaridan bilishimiz mumkin: *"You died. You did not know what it was about. You never had time to learn. They threw you in and told you the rules and the first time they caught you off base they killed you. Or they killed you gratuitously like Aymo. Or gave you the syphilis like Rinaldi. But they killed you in the end. You could count on that. Stay around and they would kill you."*²

Asardagi ruhoniy obrazi ham muvaffaqiyatli chiqqan. U urushdan nafratlanadi, urush tufayli u tushkunlikka beriladi. Uning Genri bilan suhbatida buning isbotini ko'rishimiz mumkin: *"But I hate the war."*

"I don't enjoy it," I said. He shook his head and looked out of the window.

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, p 140.

² The same source 138.

“There are people who would make war. In this country there are many like that. There are other people who would not make war.”

“Have they ever been able to stop it?”

“They are not organized to stop things and when they get organized their leaders sell them out.”

“Then it’s hopeless?”

“It is never hopeless. But sometimes I cannot hope. I try always to hope but sometimes I cannot.” “Maybe the war will be over.” “I hope so.”¹

Asardagi ikkinchi darajali obrazlardan biri bu Helen Fergusondir. U Ketrinning eng yaqin do’shti va hamkor hamshirasi. U atrofida bo’layotgan voqealardan umidsizlikka beriladi. U bu tuyg’ularini Ketringa nisbatan qo’llaydi, Ketrinning urush tufayli baxtsiz bo’lishini istamaydi, Genridan har doim Ketrinni baxtli qilishini so’raydi: *“You’ll never get married . . . You’ll fight before you marry . . . You’ll die then. Fight or die. That’s what people do . . . Maybe you’ll be all right, you two. But watch out you don’t get her in trouble. You get her in trouble and I’ll kill you . . . I don’t want her with any of those war babies.”²*

Epizodik obrazlardan birini gavdalandirgan Passini, urush tufayli halok bo’ladi. Achinarlisi, u jang maydonlarida qahramonlik ko’rsatayotganda emas, balki sovib qolgan spagetisini yeyayotganda, Avstriya harbiy kuchlarining bombardimon qilishi oqibatida bu dunyoni tark etadi. U Genri qo’lida haydovchi bo’lib ishlaydi, garchi u jang maydoni dahshatlaridan yiroqda bo’lsa-da, urushdan nafratlanardi: *“There is nothing as bad as war. We in the auto-ambulance cannot even realize at all how bad it is. When people realize how bad it is they cannot do anything to stop it because they go crazy. There are some people who never realize. There are people who are afraid of their officers. It is with them the war is made.”³*

Asardagi Manera, Gavuzzi, Aymo, Piani, Bonello va Gordini kabi boshqa epizodik obrazlar taqdiriga ham urush o’z ta’sirini o’tkazmay qolmagan. Ulardan

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 30.

² The same source, page 45.

³ The same source, page 21.

Aymo Italiya armiyasi chekinish vaqtida nemis harbylari tomonidan o'ldiriladi: *"Two more shots came from the thick brush and Aymo, as he was crossing the tracks, lurched, tripped and fell face down. We pulled him down on the other side and turned him over. "His head ought to be uphill," I said He died while I was stopping up the two holes. Piani laid his head down, wiped at his face, with a piece of the emergency dressing, then let it alone."*¹

Asar asosan front voqealarini tasvirlashga qaratilgan bo'lsa-da, unda urush jamiyatining ayanchli holatlari o'z aksini topgan. Masalan, Genri Italiya frontidan qochib ketib, Ketrinni topgandan so'ng baxtli damlarni suramiz deb xato o'ylashgan edi. Chunki urush jamiyatining beqarorligi bunga yo'l qo'ymas edi. Ular avvaliga Strezada ekanligida qochoq sifatida uni hibsga olishga kelayotganlarini bilgach, Ketrin bilan birgalikda Shvetsariyaga tomon qochishadi. U yerda ham ular urush jamiyatining iflos girdoblari ostida bo'lib, qo'rqib yashashadi. Oxir-oqibat to'lg'oqdan keyin vafot etgan Ketrin va uning o'lik tug'ilgan bolasi, I jahon urushi dahshatlarining insoniyat taqdiriga ta'sirining aksi sifatida asar oxirini belgilab beradi. Genri duch kelgan muloqotda har bir odamning hayotga qarash tarzini, urushga munosabatini kursatadi. Romandagi tasvirlangan bu voqealar fonida urush kulfatlari tufayli yo'qolib ketgan avlodlarning achchiq qismati yotadi.

O'zbek adabiyotining mashhur namoyandasi O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani asosan urush orqasidagi o'zbek qishlog'i hayotiga bag'ishlangan, unda o'sha yillardagi qishloq hayoti keng ko'lamda ifoda etilgan. Asarda odamlar taqdiri bilan qiziqish ustun, uni "taqdirlar romani" desa bo'ladi. Romandagi taqdirlar o'z navbatida konseptual xarakterga ega. Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh konsepsiyadan, ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko'radi. Asardagi har bir qahramon, u xoh epizodik qahramon bo'lsin, xoh bosh qahramon bo'lsin, ular qandaydir urush jafosini chekkan odamlardir.²

¹ Hemingway E.A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963, page 90.

² "El sevgan adib" (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) T: "Mumtoz so'z" 2011, 163 bet.

Asarning markaziy qahramonlari Muzaffar Shomurodov va Munavvar Aliyevlardir. Urushdan keyin tug'ilgan bu ikki yosh bir-birini samimiy sevadi. Ammo allaqachon tugab ketgan urushning qora sharpasi ularning baxtiga chang soladi. Romanda Muzaffar va Munavvarning fojeasi ancha keng va ishonarli ko'rsatilgan.

Muzaffar urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylanadi, ko'p jabr-sitamlarni boshdan kechiradi va pirovardida uning sevgi fojeasi ham urush keltirgan chigalliklarga borib taqaladi. Tuqqan onasi Ra'no urush to'zonlari ichida dovdirab, yo'ldan toyib hayot so'qmoqlariga kiradi; u eriga xiyonat qiladi, Umar zakunchining hiylasiga uchib, unga o'ynash bo'ladi, oxir-oqibatida emizikli chaqalog'ini tashlab, qochib ketadi. Yetti oy mobaynida Bashorat Muzaffarga onalik qilib, unga ko'krak tutadi. Buning natijasi o'laroq, Muzaffar Bashoratning qizi Munavvarni, ya'ni singlisini, o'z taqdiridan bexabar qolib, sevib qoladi. Muzaffarni Munavvarga uylanishiga hamma qarshi, axir ular emikdosh edi-da! Bu esa yigirma yil oldin tugagan urushning insoniyat taqdiriga chang solgan bir ko'rinishi edi xolos: *"Oftob har kuni kulimsirab uyg'onadi-yu odamlarga nur ulashadi. "Men borman-ku, bir kiprik qoqgulik qisqagina umringda tinch-totuv yashasalarig bo'lmaydimi?" deytoganga o'xshaydi. Odamlar uning gapiga tushunmaydi. Urush qiladi, bir-birini o'ldiradi. Go'yo o'sha urush ammanni Kimsan akamdan judo qilmagandek. Go'yo o'sha urush ellik million odamning yostig'ini quritganiga qanoat qilmay, o'zi tamom bo'lgandan keyin Munavvarning, begunoh Munavvarning ham joniga chang solmagandek. Go'yo men Munavvarning "senga nima yomonlik qildim " degan hayratli xitob qotib qolgan ko'zlarini, qop-qora mas'um ko'zlarini unutishim mumkindek...."*¹

"Ikki eshik orasi" romani personajlarga boy. Ularning orasida ayniqsa, Orif oqsoqol obrazini muallif mukammal chizishga muvaffaq bo'lgan. U xalq o'rtasida katta obro'ga ega, eng og'ir damlarda ham odamlarni qiyin ishlarga otlantira oladi. U ko'pgina o'zbek qariyalari kabi tashabbuskor va donishmand.

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: "Meriyus" 2011, 546-bet.

Ayni chog`da, haqiqatni yuzga aytishdan cho`chimaydigan shartaki, jasoratli odam. U odamlarni baholashda o`z me`yoriga ega – odamning belida belbog`i bo`lishi kerak. Belbog` uning uchun mardlik, tantilik, odamlilik belgisi. U hatto ayollarni ham shu o`lchov bilan baholaydi. U ham ko`pgina asar qahramonlari singari urush zahmatlaridan aziyat chekkan inson, ammo hech qachon buni birovning oldida oshkor etmaydi. U urush tufayli ikki pahlavondek o`gillaridan ayrildi, kelini Zuhra boshqa bir yigit bilan qochib ketmoqchi bo`ldi va uni o`sha yigitning nikohiga o`tkazishga majbur bo`ladi. Bu inson oilasidagi og`ir ko`rguliklar yuz berganda boshga tushgan musibatlar tufayli dil-dildan o`rtangani holda, baribir o`zgalar baxti oromini o`ylab ish ko`radi. O`g`illaridan judo bo`lganini tan olgisi kelmagan turmush o`rtog`i Xolposh xolani tushkunlikka berilishini istamay, o`gillari kantuz bo`lgani haqidagi yolg`onni to`qib chiqargan bu tanti inson, butun umri davomida, o`z qishlog`ining, vatanining farovonligi yo`lida xizmat qilib charchamadi. Uning “Noma`lum askar” haykali ochilishi arafasidagi nutqi barcha urush oqibatida farzand dog`ini boshidan kechirgan insonlar uchun malahmdek edi go`yo: *“Dunyoda hamma narsa unutiladi, ammo-lokin farzand dog`ini unutib bo`lmaydi. Men bilaman, bolalarim: bu yog`i No`g`ayqo`rg`on, u yog`i Ko`tarma tomonlarda belida belbo`gi bor ne-ne yigitlar shahid ketdi. Qanchadan-qancha onalar haliyam bolasining yo`liga ko`z tikib o`tiribdi. Bolalarim! Es-hushi joyida odam o`zi yotgan beshikni o`zi tepib sindirmaydi. Es-hushi joyida odam o`z uyiga o`t qo`ymaydi. Ammo yer yuzida haliyam yangi urush ochishni xayol qilayotgan nomardlar bor. Endi urush bo`lmasin desalaring mana shu qo`shaloq haykalni tavof qilinglar. Bu....tabarruk haykal”*.¹

Romandagi yana bir asosiy qahramonlardan biri Husan duma ham do`sti Oqsoqol kabi qalbi daryo odam. Duma oilasi adolatsizlik tufayli sarson qolgan Robiyani asarb, o`z farqzandidek tarbiyalab voyaga yetkazadi. Duma urush tufayli og`ir judoliklar alamini tortadi. Shu og`ir judoliklarni yengib el-yurt manfaati yo`lida tinimsiz ter to`kadi. Bu odam – asl mehnatkash, tadbirkor dehqon. U urush

¹ Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 457-bet.

tufayli o'gli Kimsandan ayrilib qoladi. Umar Zakunchi Kimsanni xoinga chiqargach Duma og'ir bosiqlik bilan unga javob qaytaradi: *“Haqorat qilmang, rais, shukur, avlodimizdan xoin chiqaanmas. O'g'lim jon olib, jon berib yuribdi”*. *“Sening o'gling-a?! Jon olib, jon beryaptimi? Husanov Kimsan sening o'g'lingmi axir?! Haqiqiy jangchi so'nggi tomchi qoni qolguncha urishadi. Oliy Bosh qo'mondonning 270-buyrug'iga asosan bunaqalar xoin sanaladi! – Boyagi qog'ozni nafrat bilan g'ijimlab, cholimning yuziga uloqtirdi. Cholim orqaga tisarilib, boshini sarak-sark qildi. –Yo`q! – dedi hansirab. – Zakunchi boshqa gap aytdi. O'g'ling xoin dedi, bildingmi! – uning ko'zlariga yana yosh to'ldi. – Men... – dedi kichkina, chayir mushtini tugib, - Men ... xoinning otasimanmi! Shuncha yil xoinni boqdimmi!”*¹

Romandagi yana bir obrazlardan biri Komil – tabib xalq ziyolisi. Komil tabib ham Oqsoqol va Duma kabi urush jafosini chekkan odam, u ham dilda alam-zitroblari bilan o'zgalar dardi, jarohatiga chora qidiradi, uning shifobaxsh qo'li ko'plarning og'rig'iga malham bo'ladi. Ayniqsa, uning Robiyaga jangda halok bo'lgan o'g'li ko'ngil rozini izhor etishdagi dramatik kechinmalari tasviri kitobxonni larzaga soladi: *“ – Qizim! – Jon qizim, - dedi ingrab. – O'g'limni sizga ko'ngli bor edi... Ayrilib goldim! – u o'kirib yubormaslik uchun kafti bilan og'zini to'sdi. – Besh kun bo'ldi, - dedi yig'idan nafasi qaytib. – Selsovetga chiqib “qoraxat”ini olib keldim. Onasi bo'lsa o'g'lim otpuskaga kelarkan deb, xursand bo'lib yuribdi. Kelsa to'y qilaman deydi. – U titroq qo'llari bilan ko'z yoshini artdi. Kalovlanib o'rnidan turdi. – Onasi eshitmasin! – dedi ovozini pasaytirib. – Erta-indin o'zim yotig'i bilan tushuntiraman. – Shunday dedi-yu ich-ichidan yana yig'i bo'g'ib keldi shekilli, kafti bilan yuzini changalladi – Olimjon, akam kelsa ordenini taqaman, deb suyunib yuribdi”*²

Romanda Kimsan Husanov obrazi ham muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida bevosita kam ishtirok etsa-da, ikki bobdagi hikoyasi orqali kitobxon tasavvurida tugal obraz sifatida gavdalanadi. U ham mard, tanti, oriyatli, belida

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 279-bet.

² O'sha manba, 259-bet.

belbog'i bor yigit. Kimsan urushda halok bo'ladi. Kimsan Husanov hikoyasi orqali jang lavhalari aks ettirilgan. Ularda fashizm harbiy jinoyatlari dahshatlari, jangda ishtirok etgan o'zbek kishisining jabrdiydalarga nisbatan cheksiz mehri, yovuzlarga nisbatan qahri, matonati ham zo'r mahorat bilan ko'rsatilgan. Uning urush haqidagi tasavvurlari Robiyaga yozgan xatida o'z aksini topgan: *"Robiya! Urushning bir kuni bir yilga tatir ekan. Har qadamda o'lim bilan ro'para bo'lavergandan keyin diydang qotib ketarkan. Robiya. Men endi avvalgi rahmdil Kimsan emasman. Jangga kirganimga yuz ellik kun bo'ldi. Yuz ellik yil yashadim desam yolg'on bo'lmaydi. Urushning o'z qoidalari bo'larkan. Bunaqa paytda mehr bilan qahrning orasi bir qadam bo'lib qolarkan. Yo sen o'ldirasan, yo seni o'ldirishadi. Boshqa yo'li yo'q. Yaqin kishilaringga, yurtingga mehning bormi, dushmanga shafqat qilma! Tamom!"*¹

Asarning yana bir markaziy qahramonlaridan biri Shomurod, urushga borib yarador bo'lib qaytadi, u tanti, mard inson sifatida asarda gavdalaniriladi. Uning xotini Ra'no, Shomurodga xiyonat qilib, Umar Zakunchi bilan birgalikda qochib ketadi. Emizikli go'dagini tashlab ketgan bu subutsiz ayol, keyinchalik taqdirning qiynoqli ko'chalarida hayot kechirishga majbur bo'ladi. U Qora ammaning qistovi bilan Robiyaga uylanadi, ammo o'g'li Muzaffarning taqdiridagi chiziqlar otani ham o'ylantirmay qolmaydi: *"Bechora Bashorat! Muzaffarni o'limdan olib qolgan shu-ku! Bir kun emas, bir hafta emas, yetti oy! Yetti oy ko'krak tutdi.... Hammasiga Ra'no aybdor! Yo'q, anavi nahs-kasofat Zakunchi aybdor! O'zim-chi! O'zimda gunoh yo'qmi! Xo'sh, nima qilishim kerak edi! Sulayib qolgan bolani uloqtirib qutulsam yaxshimidi! Dunyo nimaga bunaqa teskari! Nima uchun qilar ishni birov qiladi-yu kasofatiga boshqalar qoladi?!"*²

Adib urush davridagi ba'zi hamyurtlarimizning qiyofasini tanqid qilishda biroz oshirib yubormadimikan, degan ta'nalardan qo'rqmay Umar Zakunchi fe'l-atvoridagi yaramas, iflos xususiyatlarini hech ikkilanmay ayovsiz fosh etdi. Qahramonni bunday talqin etish roman salmog'iga salmoq qo'shdi. Chunki adib

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: "Meriyus" 2011, 182-bet.

² O'sha manba, 189-bet.

hayot haqiqatidan chekinmadi. Umar Xo'jayev qayerlardandir urilib, surilib kelgan. Bu odam ko'pchilik manfaatini emas, o'z huzur-halovatini o'ylaydiganlar toifasidan. Shuning uchun ham urush yillarida xo'jalikka bag'ritoshlik bilan rahbarlik qiladi. Har qadamda, har ishda uning qamchisidan qon tomib turadi. Uning tengi yigitlar frontda dushman bilan olishib, jon olib, jon berib yurganda, u o'zgalarning xotiniga ko'z olaytiradi, hiyla-nayranglar bilan ularni yo'ldan uradi, kishilarga shafqatsizlarcha munosabatda bo'ladi: *“Odamlar sendan qo'rqs, ko'zingga qarab mo'ltirab tursa, bundan ortqi rohat bormi? Bo'lmasa uyam odam. Lekin to'g'ri gapirasanmi, noto'g'rimi, baribir ta'zim qilib turadi! Qandoq yaxshi! Rahmdil odamdan rahbar chiqmaydi. Xalq nima? Podaday gap! Savalab tursang yo'lingga yuradi. Bo'lmasa har bitta ahmoq demokratiya deb ayyuhannos solishdan toymaydi. Yo'q, raislik kursisini osonlikcha topshiradiga ahmoq yo'q! Men senlarga Orif oqsoqol emasman....”*¹

Romandagi Olimjon obrazi ijobiy xususiyatlarga ega. U urush vaqtida ko'pgina yigitlar frontga ketganligi uchun kolxozga ishchi kuchi yetmaganligi sabab, darsdan keyin kolxoz ishlarida Robiyaga yordam berar edi. Yosh bo'lishiga qaramay ko'pgina urush voqealari keltirib chiqargan muammolar girdobida qolgan vaqtlari ham bo'ldi. Ayniqsa, Umar Zakunchi Olimjon tergan bug'doyidan yarmisini olishga va'da qilingani uchun talab qilganida tikan bilan savalagani har qanday kitobxonni larzaga soladi: *“O'shanda – yantoq bilan savalaganda dadam badanimdan ikki yuzta tikan sanab olgani, har bitta tikanning o'rni patos bilan boylab, bir oy yotolmaganim, chalqancha tushsam orqam, yerga qarab yotsam gornim lovullab achishgani, salkam bir oy o'tirgan joyimda uxlaganim.... Robiya opam sengayam boqqan balo bordir, deb chirqillagani, oyim kechasi bilan yer titrab qarg'ab chiqqani, dadam ingrab yig'lashimga qaramay, paxtani cho'pga o'rab yaramga dori surgani... ertasiga oyim, “Zolimdan qutuldik”, deb eshikdan yig'lab kirgani... Hammasi ko'z oldimga keldi”.*² Ammo bu qaytar dunyo, Umar Zakunchi vaqt o'tib, shahar ijrokomining raisi Olimjon Komilovga ishi tushishini

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 238-bet.

² O'sha manba, 483-bet.

kim ham bilsin? Ammo Olimjon diyonatli inson bo'lgani uchun ham uning iltimosini inobatga oladi.

Asarda o'nlab katta-kichik personajlar mavjud. Qimirlagan jon borki, deyarli barchasi davr dard-tashvishi bilan nafas oladi. Bir-ikki epizodda ko'rinish beradigan raykom kotibi Abdurahmonov, muallim Samadov, Rashid abzi, Dyadya Vasya, Parcha opa, Zuhra kelin kabi personajlar – hammasi murakkab, chigal, mushkul taqdir egalari. Hatto mana shu epizodik obrazlar taqdirida ham urushning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Rashid abzi obraziga nazar solsak, u asli Qozondan bo'lib, ocharchilik tufayli non izlab Toshkentga keladi. U No'g'ayqo'rg'onda pochtachilik qiladi. Uni barcha qishloq ahli hurmat qiladi. Urush vaqtida Orif oqsoqolning o'g'illaridan kelga qoraxat yetkazgani uchun Rashid abzini o'ylamay-netmay Xolposh xola “shumqadam” deya haqoratlaydi. bunday isnodga chida olmagan Rashid abzi echkisini Parchaga tashlab, bir enlik xat qoldirib No'g'ayqo'rg'onni tark etadi: *“Mini shumqadam dimag'iz. Min shumqadam imasman... Pochtada, stolda ikkita poxoronka yota. Birisi – Do'mbirobodg'a – Sulaymon abzig'a... Birisi Xirmontepag'a – Xadicha oting'a. Min Qazang'a kitam. Ni bulsa bula! Mindan rozi bulig'iz. Xayringiz...”*¹

“Ikki eshik orasi” romanidagi taqdirlar o'z navbatida konseptual xarakterga ega. Yozuvchi qahramonlar taqdiri talqinida hamisha romandagi bosh konsepsiyadan, ya'ni odamlar qismatidagi urush bilan aloqador jihatlardan kelib chiqib ish ko'radi. Bashorat, qizi Munavvar taqdirida ham urush tugaganiga yigirma yil bo'lganiga qaramay uning asoratini ko'rishimiz mumkin. Urush vaqtida Ra'no Umar Zakunchi bilan qochib ketganida Muzaffar hali go'dak edi. Oqsoqol uni emizish uchun Bashoratga beradi, ammo bu haqida hech kim bilmasligini Orif oqsoqol iltimos qiladi. Buning natijasi o'laroq, Munavvar va Muzaffar aka-singil bo'lishadi. Yillar o'tgan sayin bir-biriga aka-singil ekanidan bexabar bu ikki yosh bir-birini sevib qolishadi. Barcha ularning sevgisiga qarshi, ammo sababi neligidan bexabar yoshlar muhabbat deb atalmish ishq sharobidan mast edilar. Ularning beg'ubor muhabbati Munavvarni bo'yida bo'lib qolishi va

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 179-bet.

uning o'z joniga qasd qilishi bilan yakun topadi: *"Hozir! Hozir hammasi tamom bo'ladi! "Arzimagan" narsalar... Hammasi arzimagan...Muzaffarni sevib qolganim ham... Sovchilarning haydalishi. Muzaffarning "qaynonasi"dan kaltak yeyishi... Yo'g'-e, nega qaynonasi bo'larkan. Onasi-ku axir...Dadasi urushda yurganida onasining begona kishi bilan... Qochib ketishiyam... Muzaffarni dadasi "tuqqaniyam". Hammasi arzimas... Kim bilsin, balki urush bo'lmasa, dadasi ketmasa... Oyim "yaxshi bola" dedimi? O'zim oborib berardim, dedimi? Mabodo oyim rozi bo'lgan taqdirdayam... Men-a? O'z akamga-ya!*

*Mendaqa yuragi poroklarga to'ttasiyam yetadi. Fenobarbital kuchli preparat. Mana, oltita, sakkizta... Mana bo'ldi... Yaxshi. Hammasi joyida! Nima balo ta'sir qilmayapti-ku! Ko'ramiz! Ko'p emas, chorak soat. Bilaman... "*¹

Ammo Munavvarning o'z joniga qasd qilganini hech kim bilmaydi, uni zilzila vaqtida devor bosib o'lgan deya xulosaga kelinadi. Urush tugaganiga yigirma yil bo'lganiga qaramay, yosh, beg'ubor qizning juvonmarg bo'lishida ko'rsatgan "karomati" har qanday kitobxon ruhiyatini larzaga soladi.

Har ikkala asarda ham obrazlar talqini urush voqealarining odamlar qismatidagi ta'siridan kelib chiqilgan holda yozuvchilar tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

¹ Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. T.: "Meriyus" 2011, 533-bet.

2. “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlarining qiyosiy-tipologik tahlili

Qiyosiy adabiyotshunoslik bir nechta xalq va mamlakat adabiyotini bir-biriga solishtirib oʻrganadi. Turli milliy adabiyotlarni bir-biriga solishtirish yoʻli bilan ulardan har birining jahon madaniyati xazinasiga qoʻshgan hissasini aniqlanadi. Adabiyotlarni qiyosiy oʻrganish natijasida ayrim asarlarga emas, adabiyotning bosqichlari, adabiyotlar oʻrtasidagi oʻxshashliklar, umumiyliklar aniqlanadi.

Har qanday ikki asarni qiyoslash ular oʻrtasidagi mushtaraklik va oʻziga xoslikni aniqlashdan boshlanadi. Amerika adibi Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” va Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlari oʻrtasida muayyan oʻxshashliklar borligi adabiyotshunoslikda biror adabiyotshunos tomonidan aytib oʻtilmagan. Tadqiqot ishini yozish davomida biz bu ikki asar va yozuvchilar oʻrtasida muayyan oʻxshashlik va tafovutlarga duch keldik.

Ernest Heminguey va Oʻtkir Hoshimovlar garchi bir vaqtda yashab ijod qilishmagan boʻlsa-da, ularning ijodida muayyan oʻxshashliklarga duch kelamiz. Har ikkala adibning koʻpchilik asarlar mazmun-mohiyati urush mavzusini qamrab oladi. Chunki ikkala adib ham urushdan nafratlanadi. Heminguey I va II jahon urushlarining yaqqol guvohi sifatida oʻz asarlarida koʻpincha front hayotini tasvirlashda mohirona yondashgan. Heminguey oʻzining dastlabki faoliyatida jamiyatga ishonmay qoʻygan odamlarning taqdiri haqida soʻz yuritdi. Uning ilk urush haqidagi asarlarida jamiyatdan ajralib qolgan inson obrazi ilgari surilgan va urush hamda urushning fojeaviy oqibati tasirida insonlar bir – birlariga mehsiz, bir – birlaridan koʻngillari soʻyib borayotganligi yorqin misollarda aks ettirilgan.¹

Ammo undan farqli oʻlaroq Oʻtkir Hoshimov, shaxsan urushda qatnashmagan, guvohi boʻlmagan boʻlsa-da, urush vaqtida front va front orqa, qishloq hayotini mahorat bilan tasvirlagan. Oʻ. Hoshimov inson ruhiyatining koʻz ilgʻamas qirralarini mahorat bilan ochib bergan.

¹ Normatova Shoira Jahon adabiyoti. T.: “Choʻlpon” nashriyoti, 2008 60-bet.

Garchi, O'tkir Hoshimov Ernest Heminguey asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan bo'lsa-da, u "Ikki eshik orasi" asarini yaratayotganda "Alvido qurol!" asarining hech qanday adabiy ta'sirini sezmaymiz. Ammo bu ikki asar o'rtasida bir qator mushtarakliklar ko'zga tashlanadi. Bu ikki asar ham roman janriga xos bo'lib, romanning bosh xususiyatlaridan biri – uning katta ijtimoiy-tarixiy manzaralarning keng planda berilishini inobatga olingan holda, asarlarda urush davri manzaralari yozuvchilar tomonidan aks ettirilgan. Qisman, "Alvido qurol!" asari avtobiografik xususiyatga ega ekanligi yuqoridagi boblarda o'z isbotini topgan.

Avvalo, yozuvchilarning uslubidagi o'xshashlikka e'tiborni qaratadigan bo'lsak, har ikkala adib ham obrazlar yaratishda *aysberg prinsipidan* foydalanishgan. Voqelikni ikki xil planda bayon etish O'tkir Hoshimov poetikasi uchun xos xususiyat. Bunday bayonda tagma'no yoki metaforik ma'noga alohida o'rin beriladi. Tagma'no paydo bo'lishida har xil badiiy vositalarning ahamiyati beqiyos. Buning uchun so'zlar va motivlarni qaytarish, obraz-simvollar yaratish, ranglar, hidlar, detallardan foydalaniladi. Bunday badiiy obraz yaratish usulini o'z vaqtida Ernest Heminguey *aysberg prinsipi* deb ta'kidlagan. Bunda muallifning asosiy, muhim va eng nozik fikrlari matnda juda chuqur yashirib qo'yiladi. Shunday paytlarda kitobxon aksariyat hollarda o'zining tasavvuriga murojaat qiladi, aks holda, muallifning fikrlari ungacha yetib bormaydi. Bunday usul jahon adabiyotidagi qator yozuvchilarga ham xos bo'lgan. Masalan, amerikalik yozuvchilar U. Folkner, E. Heminguey, rus yozuvchisi V. Nabokov tasvirni nozik o'yin tarzda olib boradilar. Ushbu uslub O'tkir Hoshimov ijodida ham namoyon bo'ladi. Masalan, O'. Hoshimov ayrim fikrlarini shunday yashirib qo'yadiki, kitobxon muallifning atrofda bo'layotgan voqealarga munosabatini ilg'ab olishi ancha mushkul bo'ladi.¹

Romandagi har bir detal alohida ma'no tashiydi. Umar Zakunchi obrazidagi "Chaqqoq telpak" va "Ingichka mo'ylov" detali asar davomida bir necha marta uchrasa ham bir ma'noni takrorlamaydi. Zakunchining mo'ylovi goh chiroyli

¹ "El sevgan adib" (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) T: "Mumtoz so'z" 2011, 139 bet.

bo'lsa, goh istehzoli qiyshayadi. "Bozordagi o'g'ri" bobida esa mo'ylov qo'rquvdab titrab ketgandek bo'ladi. Chaqmoq telpak esa olifta munofiq Zakunchi olaming bir bo'lagi. Ko'p hollarda muallig asar qahramonlarining ismini aytib ham o'tirmay, ularning biron belgisini aytish yoki ishora bilan kifoyalanadi. Bo'rijar, Alvasti ko'prik detallari ham har xil holatda turli ma'no kasb etadi. Esingizda bo'lsa, har safar "Alvasti ko'prik"ka yaqin kelishi bilan oyog'i qaltiraydigan Robiya Shomurod tog'asining uyiga tasodifan kirib, Ra'noning xiyonatini ko'rgach, "Ra'no yangamnikida ko'rganlarim oldida "Alvasti ko'prik" nima bo'пти!" degan xulosaga keladi. Bu ko'prik insonlarning sarasini sarakka – puchagini puchakka ajratadigan vositadek taassurot qoldiradi.

Ernest Heminguey ijodida ham bu kabi xususiyatlarning guvohi bo'lamiz. Adib o'zining "Alvido, qurol!" asarida leytenant Genrining hayoti misolida I jahon urushidagi ko'pgina askarlarning hayoti tasvirini ko'rsatib o'tadi. Asarda ko'plab aysberg prinsipining xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Adib asarda asosan tabiat hodisalari ya'ni qor, yomg'ir kabilar orqali tagma'noni ifodalashga harakat qiladi. Ko'pgina hollarda yomg'ir asarda noxushliklar va o'limga ishora qiladi. Kitobxon yomg'ir haqida o'qiganda voqealar rivoji qandaydir noxushlikka yetaklashini sezib turadi. Masalan Ketrin yomg'irni yomon ko'radi, chunki yomg'ir unga har doim o'lim haqida darak beradi. Hatto u vafot etganida ham tinmay yomg'ir quyar edi: *"But after I had got them out and shut the door and turned off the light it wasn't any good. It was like saying good-by to a statue. After a while I went out and left the hospital and walked back to the hotel in the rain."*¹

Asardagi qor simvoli esa umid, soflikka ishora qiladi. Genri ruhoniyni Abruzzidagi uyiga borganida u yer qor bilan qoplangan edi. Bu esa ijobiy bo'yoqdorlik bag'ishlagan: *"place where the roads were frozen and hard as iron, where it was clear and cold and dry and the snow was dry and powdery"*²

Ketrin bilan Genri Shvetsariyaga qochib ketishganida ularning osuda hayotini tasvirlashda ham qor simbolidan yozuvchi unumli foydalangan: *"That fall*

¹ Hemingway E. Foreign languages Publishing house 1963, page 140.

² The same source page 25.

the snow came very late. We lived in a brown wooden house in the pine trees on the side of the mountain and at night there was frost so that there was thin ice over the water in the two pitchers on the dresser in the morning. Mrs. Guttingen came into the room early in the morning to shut the windows and started a fire in the tall porcelain stove.”¹

Har ikkala asarda ham obrazlar urush voqealarining insoniyat taqdiriga ta'sirini ko'rsatgan holda yaratilgan. Masalan, Ketrin Barkli va Munavvar Aliyevalar obrazlariga nazar solsak, ularning ikkalasiyam jamiyatda o'z o'rnini topgan obrazlardir. Ular urushning beshafqat girdobi oqibatida bu hayotdan ko'z yumadi. Har ikkala ayol qahramonlarning ismlari ular xulq-atvoriga mos tushgan. Ketrin grekchadan sof, beg'ubor degan ma'nolarni anglatasa, Munavvar arabchada nurli, ravshan, yorqin degan ma'nolarni anglatadi. Har ikkala qahramon ham bilib-bilmay yo'l qo'ygan xatosi tufayli, homilador bo'lib qoladi. Bu xatoning oqibati esa har ikkala qahramon hayotining erta xazon bo'lishiga olib keladi. Ketrin Barkli tug'ruq jarayonida vafot etgan bo'lsa, Munavvar bunday sharmandalikka chiday olmay o'z joniga qasd qiladi.

Asardagi yana bir o'xshashlik jihati ulardagi g'oya va mazmun mushtarakligida namoyon bo'ladi. Har ikkala asarda ham urush va uning beshafqat zug'umlariga qarshi nafrat, muhabbatga sadoqat, insoniylik, vatanparvarlik kabi g'oyalar o'z aksini topgan. Bu ikki asar qahramonlarida yuqorida qayd etilgan g'oyalar jo bo'lgan va asar mazmuni urushning insoniyat taqdiriga ta'sirini ko'rsatib berishdan iborat.

Asarlarda salbiy qahramonlar salmog'i kam. Bu esa kitobxonda o'zgacha taassurot qoldiradi. “Alvido, qurol!” asarida deyarli hech qanday salbiy xarakterga ega obrazni uchratmaymiz. “Ikki eshik orasi” asarida Umar Zakunchidan boshqa salbiy obrazlar joy olmagan.

O'tkir Hoshimov va Ernest Hemingueylar ijodining yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu “*aldangan kutish*” usulidan unumli foydalanishdir. Bu

¹ Hemingway E. Foreign languages Publishing house 1963, p 121

ayniqsa, O'. Hoshimov ijodida yaqqol namoyon bo'ladi.¹ Adib o'z asarlarida kitobxonni kuttirish orqali nozik "o'yin" olib boradi. Ushbu usul O'. Hoshimovning mazkur asarida ham qo'llanilishining guvohi bo'lamiz. Masalan, asar boshida "Qora amma hikoyasi"da ammaning dardi haqida gap ketadi. Lekin muallif Qora ammani nimalar bezovta qilayotganini tasvirlashga shoshilmaydi. Ancha voqealar sodir bo'lgandan keyin kitobxonga ayon bo'ladiki, bu dard – Muzaffarning onasi yo'qligi, Robiyani shomurodga uzatishi. Yoki romandagi voqealar Muzaffar onasining vafotini ma'lum qilinishi bilan boshlanadi. Ammo bir muncha vaqt o'tgandan keyin ma'lum bo'ladiki, Muzaffarning onasi – Robiya tirik. Ammo asar voqealarining yarmi sodir bo'lgandan keyin Muzaffarning haqiqiy onasi Ra'no ekanligi kitobxonga ayon bo'ladi. Shunga o'xshagan misollar asarda talaygina uchraydi.

Heminguey ijodida ham bu kabi xususiyatlarni uchratishimiz mumkin. Asar voqealari jarayonida Genri chekinish vaqtida, tezroq bu azoblardan qutulib, Kettrin bilan birgalikda baxtli hayot boshlashini kitobxon intizorlik bilan kutadi. Ammo yozuvchi aksincha, ularning taqdirini tub burilishlarga buradi. Asar qahramonlari Genrini qidirayotganliklari sababli, har yerda yashirilib yurishga majbur bo'lishadi. Shvetsariyaga qochib ketishganida endigina baxtli hayot kechirishni boshlashganda Kettrin bu olamni tark etadi.

Asarlardagi o'ziga xoslikka e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, avvalo yozuvchilar uslubiga e'tiborimizni qaratishimiz zarur bo'ladi. Ernest Heminguey - "Yo'qotilgan avlod" deb ataladigan I jahon urushi arafasida vujudga kelgan adabiy oqimining a'zosi. U adabiy oqimning bir vakili sifatida, asarlarida tushkun kayfiyat, umidsizlik kabi holatlar aksini uchratishimiz mumkin. Shuningdek, "Alvido, quroll!" romanidagi voqealar rivoji faqatgina Genri tomonidan hikoya qilinadi. Shuningdek, boshqa obrazlarga, voqealarga munosabatni ham Genri ko'zi orqali ko'rishimiz mumkin.

¹ "El sevgan adib" (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) T: "Mumtoz so'z" 2011, 163 bet.

O'tkir Hoshimov XX asr o'zbek adabiyotining vakili sifatida, uning asarlarida davr muammosi mahorat bilan aks ettirilganiga guvoh bo'lamiz. "Ikki eshik orasi" asari polifonik xususiyatga ega. Ya'ni bir voqeaga har kim o'z nuqtai nazaridan qaraydi. Masalan, Robiya o'z to'yidan norozi. Uning o'z iztiroblari bor. Kichik Muzaffar uchun esa otaning uylanayotgani ham, kimga uylanayotgani ham baribir. Uning niyati kelin boshidan sochilgan shirinliklardan ko'proq olib qolish. Bu o'rinda kitobxon ham ro'y berayotgan voqea-hodisalarni yanada teranroq his qilishga majbur bo'ladi.

Har ikki adib ijodida obrazlar talqini, ularning taqdirida urushning ta'siri hissi aniq ko'rinib tursa-da, ro'y berayotgan hodisalar orasidagi zamon masofasi uzoq bo'lishi ham mumkin. Adiblarning asarlarini sinchiklab o'qigan odam, har bir yozuvchi asarida bir-biriga yaqin va tanish personajlarni uchrashini payqash mumkin. Bu jahon adabiyotida uchrab turadigan holat. Har bir yangi asarida, ularning umumiy xarakteri saqlanib qolsa-da, yangi qirralari ochiladi.

III bob bo'yicha xulosa

Amerika adabiyotining nodir namunalaridan biri bo'lgan Ernest Hemingueyning "Alvido qurol" va o'zbek adabiyotida "taqdirlar romani" sifatida kitobxonlar qalbidan joy olgan O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarlaridagi obrazlar tasviri har ikkala muallif tomonidan urush davri jamiyatini aks ettirishda va inson ruhiyatini ochib berishda to'g'ri tanlangan. O'.Hoshimov va E.Hemingueylar urush haqidagi asarlar ustida ishlash davomida insonning ruhiy olamiga chuqur kirib borishga va ularning taqdirida urushning ta'sirini ko'rsatishda harakat qildilar va bu yo'lda tasvir usulini kengaytirishga erishdilar. Asarlar o'rtasidagi qiyosiy-tipologik tahlil natijasida, bir-biridan zamon va makon jihatdan uzoqda bo'lgan ikkala adibning urush voqealari tasviri va uning insonlar taqdiriga ta'sirini ko'rsatib berishga bag'ishlangan asarlaridagi mushtaraklik va o'ziga xosliklarning namoyon bo'lishi qiyosiy adabiyotshunoslik fanining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shsa ajab emas, albatta.

XULOSA

I va II jahon urushlari insoniyat boshiga kulfat keltirishi bilan bir qatorda, bu davr voqealarini aks ettiruvchi nodir asarlarni vujudga kelishida alohida ahamiyat kasb etdi. Ishni yozish davomida oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ish ko'rdik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. Amerika va o'zbek adabiyoti yozuvchilari uchun I va II jahon urushlari o'sha davrning dolzarb mavzu va muammolaridan biri edi. Insoniyat boshiga kulfat solgan ikkala jahon urushlari har ikki millat adabiyotining nodir namunalari yaralishida alohida ahamiyat kasb etdi. Amerika adabiyotining Norman Meylor, Jon Dos Passos, Herman Vouk, Kamming, Ernest Heminguey, Jon Oliver Killens, Uilyam Folkner, Yujin Oneil kabi adiblari urush adabiyotining yorqin asarlari vujudga kelishida salmoqli hissa qo'shdilar. Bulardan Ernest Hemingueyning ko'pchilik asarlari urush mavzusiga qaratilgan, chunki yozuvchi yashagan davrda ko'plab urushlar sodir bo'lganki, ularning jonli guvohi sifatida Heminguey o'z kitobxonlariga ana shu davrni yuksak mahorat bilan ochib bera olgan. Adibning “Alvido, qurol!” asarida I jahon urushi voqealari tasvirlangan bo'lib, adib Genrining hayoti orqali urush davri askarlarining va front hayotining tasvirini mohirona ko'rsatib bergan.

2. Urush manzaralari o'zbek adabiyotining barcha badiiy qatlamlariga o'z muhrini bosdi: faqat mavzu va g'oyagina emas, balki qahramon obrazi ham o'zgardi; adabiyotimizning butun ruhi va yo'nalishi harbiy izga tushdi. Urush davrida she'riyat, nasr va dramaturgiya turlarida yaratilgan aksar asarlar safarbarlik ruhiga ega edi. Urush davri manzaralarini yoritishda o'zbek adiblaridan Hamid Olimjon, Oybek, Zulfiya, G'afur G'ulom, Rahmat Fayziy, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Ibrohim Rahim, Sharof Rashidov, O'tkir Hoshimovlar katta hissa qo'shdilar. O'tkir Hoshimovning ko'pgina asarlarida urush mavzusi, uning ayanchli oqibatlari qalamga olingan. Adibning “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” romanlari, “Urushning so'nggi qurboni”, “Nega? Nega-a-a?” kabi hikoyalari shular jumlasidandir.

3. Ernest Hemingueyning “Alvido, qurol!” va Oʻtkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlari jahon urushlari haqidagi nodir namunalardir. Ulardagi gʻoya va mazmun ham bir-biriga yaqin, har ikkala asarda ham urushga nisbatan nafrat, sevgiga sadoqat, vatanparvarlik, insoniylik kabi gʻoyalar ilgari surilgan. Ulardan anglashiladigan mazmun esa urush voqealarining insoniyat taqdiriga taʼsirini koʻrsatib berishdir.

4. Har ikkala asarda ham ayollar obraziga keng oʻrin berilgan, ularning jamiyatda tutgan oʻrni, urush voqealarining ular taqdiriga taʼsiri ham mualliflar tomonidan mahorat bilan koʻrsatilgan. Mualliflar ayol qahramonlarning obrazlarini milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda yaratishgan. Shunigdek, Ketrin Barkli va Munavvar Aliyevalar obrazlarida bir-biriga oʻxshashlik xususiyatlari ishda koʻrsatilgan.

5. Asarlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish jarayonida har ikkala adibning ham, voqealar tasvirida “*aysberg prinsipi*” va “*aldangan kutish*” usulidan samarali foydalanganligi, urush voqealarining insonlar taqdiriga taʼsirini koʻrsatishda obrazlar asar mazmuniga mos tanlanganligiga guvoh boʻldik. “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlari urushning insoniyat taqdiriga taʼsirini koʻrsatar ekan, undagi muhit tasviriga ham alohida eʼtibor qaratishgan. “Alvido, qurol!” asari asosan front voqealarini tasvirlashga qaratilgan boʻlsa, “Ikki eshik orasi” front orti voqealaridagi qishloq hayoti tasvirlangan.

Har ikkala asar ham jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam oʻrin olganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Ishonamizki, “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlari ingliz va oʻzbek adabiyotida shu paytgacha yaratilgan eng sara asarlar qatorida jahon xalqlarining suyuqli va doimiy hamrohi boʻlib qoladi. Bu ikki asar gʻoyaviy-badiiy jihatdan baquvvat, original uslubda adiblar tomonidan mahorat bilan yozilgan boʻlib, hayotiy va oʻqishli asar sifatida jahon adabiyoti xazinasida alohida oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.// Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. —Т.: Шарқ, 1997.
2. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar mahkamasining “О'zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o'qishga yuborish to'g'risida”gi 1992-yil 20-iyuldagi №334 sonli Qarori.
3. О'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2012-yil 10-dekabrda Qarori.

II. Ilmiy-badiiy adabiyotlar:

4. Akobirov F. R. Amerika adabiyoti fanidan ma'ruza matnlari. Buxoro 2009. – B. 128.
5. Assadnasab Sara. Hemingway's depiction of women in *A Farewell to Arms*. Lulea University of Technology, 2005. – P 26.
6. Azizov Q, Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi T.: "O'qituvchi" 1987. – B 320.
7. Baker, Carlos. *Ernest Hemingway, A Life Story*. New York: Charles Scribner's Sons, 1969. – P 269.
8. Baker Carlos. Hemigway. Princeton University Press. 1972. – P 190.
9. Baker Carlos. Hemigway and his critiques. New York Press. 1961. – P 197.
10. Boynazarov Fayzulla. Jahon adabiyoti. T.: “Musiq” nashriyoti, 2006.
11. Donaldson, Scott. New essay of *A Farewell to Arms*. Cambridge University, 1990. – P 68.
12. “El sevgan adib” (O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdida) T.: “Mumtoz so'z” 2011. 230 b.
13. Griffin Peter. Along With Youth: Hemingway the Early Years. Oxford: Oxford UniversityPress, 1985. – P 116.

14. Hemingway Ernest. A Farewell to Arms. Foreign languages Publishing house, 1963. – P 145.
15. Heminguey Ernest. “Alvido, qurol!” T.: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va sana`at nashriyoti 1972. 378b.
16. Hoshimov O`tkir. Ikki eshik orasi. T.: “Meriyus” 2011, 548 b.
17. Hoshimov O`tkir. Saylanma. Ikki jildlik. T., “SHarq”, 1993.
18. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T.: “O`qituvchi”, 1986. 221 b.
19. Kearns George. English and Western Literature. The USA: Macmillan Publishing Company, 1987. – P 365.
20. Lundberg David. THE AMERICAN LITERATURE OF WAR: THE CIVIL WAR, WORLD WAR I, AND WORLD WAR II. Tufts University Press, 2001. – P 26.
21. Meyers Jeffrey. Hemingway: A Biography. Cambridge, MA: Da Capo, 1999. – P 276.
22. Mirzayev S, Shemuhammedov S. Hozirgi zamon o`zbek adabiyoti tarixi. T.: “O`zbekiston”, 1993. 212b.
23. Mirvaliyev S. O`zbek adiblari. T.: “Fan” nashriyoti, 1993. – B 157.
24. Muhammad Solih “Iqrar” Ernest Heminguey tavvaludining 85 yilligiga, 1979y. 15 son
25. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. T.: “Cho`lpon” nashriyoti, 2008. – B.98
26. Normatov U. Ilk tajriba saboqlari. “Yetuklik” kitobida. T., G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1982. – B 292.
27. Peterson James. American History and Literature. Wallace Literary Agency, Washington D.C. 1995. – P 254.
28. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. – B 177.
29. Rasulov A. Ijodning sirli ibtidosi. “Yoshlik”, 1991, 12-son.
30. Recla Amy. The development of Hemingway's female characters: Catherine from A Farewell to Arms to The Garden of Eden. University of South Florida. 2008. – P 40.

31. Sexton Adam. Hemingway's A Farewell to Arms. IDG Books Worldwide. 1997. – P 132.
32. Sirirath Chunasart. A Study of A Farewell to Arms as Ernest Hemingway's Autobiographical novel: A Freudian Analysis. Language Institute Journal. Volume, 3. 2006, 62-76.
33. Skipp Francis. American Literature. Barron's educational series. 1992. – P 139.
34. Svoboda, Frederick J. "The Great Themes in Hemingway: Love, War, Wilderness, and Loss," Historical Guide to Ernest Hemingway. New York: Oxford University Press, 2000. – P 169.
35. Umurov Hotam. Adabiyot nazariyasi. T.: "Sharq", 2002. – B 254.
36. Utevskeya N.L English and American literature. Sant-Pet.2007. – P 289.
37. Vanspersken U. Outline of American Literature.
38. Xudoyberdiyev Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: "O'AJBNT" markazi, 2003. – B 362.
39. Shukurov N. Xolmatov Sh. Xotamov N. Maxmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: "O'qituvchi" 1979. – B 232.
40. Wagner Martin Linda. Ernest Hemingway: A Literary Life. Palgrave Macmillan Press 2007. – P 214.
41. Walsh Jeffrey. American War Literature. New York: St. Martin's Press, 1982. – P 254.

III. Lug'atlar va ensiklopediyalar:

42. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. New Edition. – Macmillan Publishers Limited, 2007. – P.1748.
43. Мюллер В.К. Большой англо-русский и русско-английский словарь. Новая редакция. – Москва: «Дом Славянской культуры», 2008. – С.958
44. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. – B.
45. Русча-ўзбекча луғат. –Т.: “Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси”. 1983.

46. World Book Encyclopedia. – Chicago, London, Sydney, Toronto: A Scott Fetzer Company, 1995. 26 volumes.
47. Энциклопедический словарь английской литературы XX века. – М.: Наука, 2005. – С.543

IV. Internet saytlari:

48. <http://books.google.com>
49. <http://www.britannica.com> (Britannica Online Encyclopedia)
50. <http://www.literature.com>
51. <http://www.cliffsnotes.com>
52. <http://www.kitob.uz>
53. <http://www.google.com>
54. <http://www.idgbooks.com>

FOR AUTHOR USE ONLY

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I bob. Jahon urushlarining jahon adabiyoti rivojiga ta'siri.....	7
1. Amerika adabiyoti yozuvchilarining urushga munosabati	7
2. O'zbek romanchiligida urush mavzusi.....	18
I bob bo'yicha xulosa.....	26
II bob. “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlarida urushga munosabat.....	27
1. Ingliz va o'zbek urush adabiyotida g'oya va mazmun mushtarakligi	27
2. Urush davri jamiyatida ayol o'rni (ikki asar asosida).....	42
II bob bo'yicha xulosa.....	51
III bob. “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlarida obrazlar talqini.....	52
1. “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlaridagi obrazlar taqdiriga urush voqealarining ta'siri.....	52
2. “Alvido, qurol!” va “Ikki eshik orasi” asarlarining qiyosiy-tipologik tahlili.....	65
III bob bo'yicha xulosa.....	70
Xulosa.....	71
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	73

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brīvības gatve 197
LV-1039 Rīga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY